

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

“JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI” KAFEDRASI

«Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida tutgan o`rni.»

mavzusidagi yozgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5141900-jismoniy tarbiya  
va jismoniy  
madaniyat ta`lim yo`nalishi  
Bitiruvchisi 4-kurs talabasi  
Murodov Sirojiddin  
Baxtiyorovich  
Ilmiy rahbari: **Botirov B. E**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

sonli bayonnomasi “ ”

2013 yil.

**TERMIZ- 2013 y.**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I.BOB O`ZBEKISTONDA SPORTNING RIVOJLANISHI VA SPORT BAYRAMLARI</b>	
1.1. O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi.....	6
1.2. O`zbekiston sport bayramlarida BO`SMLarining roli va o`rni.....	14
1.3. O`zbekistonda xalqaro sport musobaqalari va uzluksiz ta`lim tizimidagi sport musobaqalari.....	16
1.4. Uch bosqichli sport musobaqalarning funkstional maqsadlari.....	19
<b>II. BOB OLIMPIYA O`YINLARINING YOSHLAR TARBIYASIDA SPORT BAYRAMLARI SIFATIDA TUTGAN O`RNI</b>	
1.1 Olimpiya o`yinlari tarixi.....	33
1.2 Olimpiya xarakati.....	36
1.3 O`zbekiston Olimpia Akademiyasi.....	38
1.4 Xalqaro olimpiya va O`zbekiston olimpiya “shon shuxrati” muzeylari.....	41
<b>XULOSA</b> .....	49
<b>ADABIYOTLAR</b> .....	50

## K I R I S H

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizning o`quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlariga uzluksiz jalb qilishni ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida hamda Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi 1999 yil 27 maydagi 271 sonli qaroriga binoan, mamlakatda uch bo`g`inli sport tizimi yaratilib, u uzluksiz ta`limda amalga oshirila boshlandi.

Keyingi yillarda aholining barcha tabaqalarida jismoniy tarbiya, sport va sayohat qilishga bo`lgan qiziqish, munosabat ko`pchilik yoshlarning kundalik turmushida ehtiyojiga aylanmoqda. Buning sababi hozirgi kunda hammaga ma`lum. Ya`ni keksa-yu, yosh turli harakatlar, mashqlar, o`yinlar, sayohatlarning tanani chiniqtirish, mustahkamlash va umrni uzaytirishdagi foydalarini amalda sinab ko`rib, unga ishonch hosil qilmoqdalar. Sport inshootlarini qurish, ixtisosli kadrlar tayyorlash, ommaviy sog`lomlashtiruvchi va sport ishlarini rejalashtirishni tashkil qilish, aholi o`rtasida jismoniy tarbiya va sport bayramlarini o`tkazish hamda sayohatni targ`ibot qilishda juda katta ishlar qilinmoqda

Sport bayramlari yoshlarini jismoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatga tayyorlash borasida keng qamrovli ishlarni yangi bosqichga ko`tarishga va ularning sportga qiziqishlarini, yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam to`ldirib borishga yordam beradi. Musobaqalarda kashf etilgan g`oliblar O`zbekiston Respublikasi terma jamoalariga jalb etiladi. Yana bir muxim tomoni – bu tizimlarda sportning ma`lum turi bo`yicha faoliyat ko`rsatgan yigit qizlar bu boradagi ishlarni bo`lajak oilasida, mexnat jamoalarida ham davom ettiradi.

Xalqaro Sport bayramlari va yoshlar tarbiyasida tutgan o`rni ” mavzusidagi BMI xozirgi zamonning dolzarb mavzularidan biri xisoblanadi.

Shunday qilib, shaxsni jismoniy va ma`naviy mukammallikka yuksaltirishning muxim omili bo`lgan sport O`zbekistonda mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo`nalishiga aylanadi. Ommaviylikdan yuksak sport yutuqlariga yo`naltirilgan yangi tizim o`quvchi – yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzini shakllantirishi bilan xalqaro maydonlarda O`zbekiston nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Miliy modelning eng asosiy tarkibiy qismi O`zbekiston o`quvchi-yoshlarining uch bug`inli uzluksiz sport musobaqalari tizimi bo`lib, u o`sib kelayotgan yosh avlod qalbida sportga muxabbat tuyg`ularini kamol toptirish, ularning jismoniy kobiliyatlarini namoyish etish, sport bilan shug`ullanish uchun zamonaviy talablar darajasidagi shart-sharoitlarni yaratish orkali ommaviy sportni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu tizim o`quvchi yoshlarni sportga ommaviy jalb kilishda o`zviylik va xomiylik, maqsadida va samaralorlik tamoyilariga asoslanib, kuyildagi natijalarga erishishni ko`zda tutadi.

«Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida tutgan o`rni» mavzusidagi BMI xozirgi zamonning dolzarb mavzularidan biri xisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Jismoniy tarbiya harakatining ommaviyiligini ta`minlashga, barcha yoshdagi o`quvchilar sog`ligini tiklashda jismoniy tarbiya va sportning rolini oshirishga imkon beradi, sport turlaribo`yicha iqtidorli yoshlardan mamlakat terma jamoalarini shakllantirish tizimi yaratiladi.

Yoshlar o`rtasida sog`lom turmush tarzini shakllantirishi bilan xalqaro maydonlarda O`zbekiston nufuzini oshirishga xizmat qiladi

Maktablar, akademik listeylar, kasb – hunar kollejlari, bolalar – o`smirlar sport maktablaridagi sport ishlari, murabbiylar, jismoniy tarbiya o`qituvchilari

faoliyatlari ustidan samarali nazorat tizimini yaratish ta`minlash.

Joylarda sport bazalarini yanada rivojlantirish, mavjud tizimlarni takomillashtirish, kadrlar darajasi va saviyasini oshirish, sog`lom muxit yaratish vazifalari hal etiladi.

Sport bayramlari yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning sportga qiziqishlarini, yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam to`ldirib borishga yordam berishdir

### **Tadqiqotning vazifalari.**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturga muvofiq ta`lim modeli asosida o`quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qiladigan uch bo`g`imli yagona tizim tashkil qilindi va amaliyotga joriy etildi. Uzluksiz ta`lim tizimida ommaviy sport harakatining tashkiliy va boshqaruv asoslarini takomillashtirish, tarixiy tajribani tahlil etish,

**Tadqiqot metodlari.** Muammoga doir tarixiy, falsafiy, metodologik, pedagogik adabiyotlar taxlili; pedagogik kuzatishlar, so`rovnomalar, interv`yular, yozma ishlar, testlar o`tkazish va ularni tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi ijtimoiy yo`nalishlarining aniqlanganligi, xalqaro sport bayramlari tizimida ommaviy sport harakatining tashkiliy asoslari taxlil qilinganligi, O`zbekistondagi sport bayramlarining ilmiy jixatdan asoslab berilganligi o`z ifodasini topgan.

## **I.BOB O`ZBEKISTONDA SPORTNING RIVOJLANISHI VA SPORT BAYRAMLARI**

### **1.1 O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi**

Sog`lom turmush tarzini shakllantirish, millat genofondini yanada sog`lomlashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash borasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ahamiyati davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri deb belgilangan. Kisqa muddatda bu soxada olib borilgan keng ko`lamda amaliy xarakterli o`z samarasini bera boshladi. Ma`lumki, mamlakatimiz sportni 1991 yilgacha sobiq. Ittifoq, bo`yicha amal qilgan xukmron tizimning bir qismi bo`lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o`z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo`lmagan. Respublikamizning sanoqli sportchilarigina Olimpiya o`yinlari, jahon va Evropa miqyosidagi nufuzli musobaqalarda qatnasha oladi. Asosiy e`tibor mahalliy aholi o`rtasidan malakali sportchilar tayyorlash, jismoniy tarbiyani ommalashtirishga emas, balki boshqa respublikalar bilan tayyor sportchilarni taklif qilib, xo`jako`rsinga muayyan natijalar olishga qaratilar edi. Shu bois, respublikaning faqat markaziy shaxarlarida birmuncha ishlar qilinib, chekka hududlarida sportni rivojlantirishga etarli ahamiyat berilmadi. 1991 yilgacha O`zbekistonda

jahon andozlari talablariga javob beradigan birorta xam yirik sport inshooti bunyod etilmagani, xatto Toshkent shaxrida ushbu talablarga mos sport majmuasi bo`lmaganini o`zidayoq bu fikrni yaqqol tasliqlaydi.

Mustaqilikka qadar O`zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyib yopiq edi. Futbol va tennis bo`yicha o`smirlar o`rtasida sobiq, sostialistik davlatlar sportchilari ishtirokida o`tkazilgan turnirlarni xisobga olmaganda, mamlakatimizda boshqa xalqaro musobaqalar deyarli o`tkazilmadi. Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport soxasida xam o`z asoratlarini qoldirib, bo`lar ayniqsa, quyidagilarda namoyon bo`ldi:

1.O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo`lga qo`yiladigan, sport xarakatiga etarli axoli ommaviy ravishda jalb kilinadi; ular orasidan yukori malakali sportchilarni tayyorlash: borasi esa, anik va maqsadli ishlar olib borilmadi, oqibatda aksariyat yoshlarning jismonan sog`lomligi talab darajasida bo`lmay, ular orasidan katta sportga sanoqli sportchilar chiqa oladilar;

2.Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini ko`rish, umuman sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari fakat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshiriladi;

3. Soxa uchun oliy va o`rta ma`lumotli kadrlar tayyorlash yo`lga qo`yilgan bo`lsada, musobaqlarda milliy sportchi kadrlar turli sun`iy to`sik va saralashlardan o`tishga majbur edi. Milliy kadrlarni tayyorlash va maxaliy sportchilar iqtidorini ro`yobga chiqarishdagi bunday noxolis siyosat asorati mustaqillikning birinchi yillarida ko`pchilik sportchi va murabbiylarning boshqa joylarga ketib qolishilari o`z aksini topdi;

4.O`zbekiston sportiga adolatsiz munosabat tufayli juda ko`p sportchilarimiz Evropa, Jaxon va Olimpiya musobaqalarida ishtirok etish

imkoniyatidan maxrum etildi;

5. O'zbekiston sportchilarining qadri miqyosiga mustaqil chiqqan olmaganligi mazkur sohaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanib borishiga xam katta to'sqinlik qildi. O'zbekistonda mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida Mustaqillikning birinchi kunlaridanok, mamlakat raxbirining tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qonunlar, institutga va fakultetlariga imtiyozli ravishda o'kishga kirish huquqiga ega bo'ladilar.

Yurtni bitta maqsad atrofida birlashtira oladigan halqning g'urur va tuyg'usini oshiradigan, yoshlarni o'ziga jalb qila oladigan sportning ommaviy o'yin turi futbolni yanada rivojlantirish maqsadida 1993 yili qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 1992 yilda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Natijada mamlakatda sportni keng miqyosida ommaviy ravishda rivojlantirish xarakatlari jonlanib, respublikamizning barcha o'quv muassasalarida futbol maydonchalari tashkil etildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri markazlaridagi barcha stadionlar qayta ta'mirlandi, joylardagi futbol maydonlari xalqaro standartlar darajasida rekonstruktsiya qilindi, barcha viloyatlarda futbol maktab-internatlari tashkil etildi va tegishli mutaxassis kadrlar bilan: to'ldirildi xamda katta futbolni professional klublar tizimiga o'tkazilishiga asos bo'ldi.

Mamlakat sportchilari Olimpiya o'yinlarida ilk marotaba mustakil jamoa sifatida Amerikaning Atlanta shaxrida 1996 yilda ishtirok etdilar.

O`zbekiston hukumati sportchilarimizni halqaro musobaqalar, Olimpiya, Osiyo o`yinlarida muvofaqiyatli qatnashishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Mustabil tizim davrida, O`zbekistondan yozgi Olimpiya o`yinlarida atiga 40 nafar sportchi ishtirok etgan bo`lsa, mustakilikdan keyin birgina AKLPning Atlanta shahrida bo`lib, o`tgan Olimpiya o`yinlarida mamlakatimizning 76 nafar sportchisi qatnashib, dzyulochi Armen Boglasarov kumush, bokschi Karim To`laganov esa, bronza medallarini qo`lga kiritdilar. 1994 yilda Lilihammerda o`tkazilgan qishki Olimpiya o`yinlarida Lina Cheryazova oltin medalga sazovor bo`ldi.

2000 yilda Avstraliyaning Sidney shaxrida o`tgan Olimpiya o`yinlarida esa, 77 nafar sportchimiz Vatanimiz sharafini himoya qilib, bokschilardan Muhammadqodir Ablulaev oltin, Rustam Saidov bronza, erkin kurashchisi Artur Taymazov kumush medallar sohibi bo`ldilar. Qisqa davrda sport soxasida amalga oshirilgan ishlar muhim O`zbekistonning bu boradagi tajribasi jaxonda e`tirof etilib, O`zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham Xalqaro olimpiya xarakteriga qo`shgan katta xissasi uchun 1996 yilda Xalqaro Olimpiya qo`mitasiining oliy mukofoti-Oltin Olimpiya ordeni bilan takdirlandi. O`zbekistan Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shaxrida «Olimpiya shon-shuxrati» mo`zeyi tashkil etilib, uning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo`mitasining Prezidenti L.A. Samaranch qatnashdi. Respublika Prezidentining tashabbusi tufayli sportniig o`yin turlari bilan birgalikda, taraqqiy etgan davlatlardagina rivoj topgan katta tennis mamlakatimizning barcha xududlarida ommaviy ravishda, tez sur`atlar bilan turli Bir necha yilda jaxon andozalari talablariga javob beradigan tennis saroylari va kortlari Qoraqalpog`iston Respublikasi, Toshkent shaxrida va viloyatlarda bunyod etildi, ular

negazida turli darajadagi xalqaro musobaqalar o`tkazib kelinmoqda.

1994 yildan Toshkentda ATR tafsifidan joy olgan «Prezident Kubogi» xalqaro turniri, «Toshkent Open» xalqaro ayollar turniri, shuningdek, Farg`ona, Samarqand, Guliston, Buxoro, Qarshi va boshqa shaxarlarda «Chexenjer», «Fyuchers» va «Satedit» turkumidagi xalqaro tennis turnirlari o`tkazilib kelinmoqda. 1997 yilda mamlakatimizda tennisni rivojlantirish va uni qo`llab-quvvatlashga karatilgan maxsus Jamg`arma tashkil etildi. Mamlakat axolisi o`rtasida tennisni targ`ib etish va jalb qilish, shug`ulanuvchilarga tegishli sharoitlar yaratish maqsadida "O`zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida" Vazirlar Malkamasi qarori qabul kilindi (1998 y.) . Unga muvofiq, viloyatlarda tennis federastiyalari, klublari tashkil etildi, ushbu sport turi yuqori bosqichga olib chiqildi. Mamlakatda Olimpiya o`yinlari dasturidan o`rin olgan sport turlarini mamlakatni rivojlantirish bilan birga, ma`lum sport turi "Kurashning jahon sporti ananalariga olib chiqish borasida missilsiz ishlar amalga oshirildi. O`zbek milliy sporti kurashni yanada rivojlantirish, uning halqaro maydonda mustahkam o`rin egalashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti 1999 yilda «Xalqaro Kurash Assostiastiyasini qo`llab quvvatlash to`g`risida»gi farmonni imzolandi. Unga ko`ra, yurtimizda halqaro kurashni rivojlantirish jamg`armasi tuzildi. Xalqaro kurash assostiastiyasi ham Xalqaro kurash akademiyasiga davlat tomonidan xuquqiy va amaliy jixatlari kattda e`tibor ko`rsatildi. Mamlakat Prezidenti I.Karimov Xalqaro Kurash Assostiastiyasining faxriy prezidenti etib saylandi. O`zbekistonning sport soxasida erishgan eng katta yutuklaridan biri milliy kurashning dunyo miqqyosiga chikishi bilan bog`likdir. Xozirda jaxonning 76 mamlakatida kurash federastiyalari tuzildi. Bu miliy sport turi

buyicha dastlabki Osiyo, Evropa, Afrika, Amerika qitalari va jaxon chempionatlari o`tkazildi. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni kompleks rivojlantirish maqsadida «O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Vazirlar Malkamasining qarori 1999 yilda qabul qilindi . Unga binoan, «O`zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturi konstepstiyasi» tasdiqlanib, uning asosiy yo`nalishlari sifatida quyidigilar qabul qilindi:

1. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomilashtirish;

2. Jismoniy tarbiya-sog`lomlashtirish, ommaviy-sport ishlarini va sportning miliy turlarini rivojlantirish;

3. Jismoniy tarbiya ham sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta`minlash;

4. Jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish;

5. Jismoniy tarbiya va sportni targ`ib qilish;

6. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag` bilan ta`minlash tizimini takomilashtirish no davlat sektorini rivojlantirish.

Dastur tadbirlari asosida «Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida»gi qonunning yangi tadbirdagi loyixasi ishlab chiqilib, 2000 yilda Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi; Toshkent shaxrida boksni, miliy sport turlarini rivojlantirish, Shaxrisabzda esa, kurashni rivojlantirish respublika markazlari tashkil etildi; aholining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beradigan «Alpomish» va «Barchinoy» testlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi; mamlakatimizdagi barcha sport inshootlari ro`yxatdan o`tkazildi; viloyat markazlarida olimpiya zaxiralari kollejlari ishga tushirila boshlandi. O`zbekistonda sportchi va murabbiylar mexnatini ma`naviy va moddiy rag`batlantirishga katta e`tibor berilib, «O`zbekiston

Respublikasida xizmat ko`rsatgan sport ustozlari va «O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan sportchi» faxriy unvonlari ta`sis etildi (1992 y.) . Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Olimpiya o`yinlari va jaxon chempionatlarida sovrinli o`rinlarni egalagan sportchilarga beriladigan «O`zbekiston iftixori» faxriy unvoni (1998 yilda) ta`sis etildi .

O`zbekiston sportchilari nufuzli xalqaro musobaqalarda qatnashib, barcha qatlamdagi medallarni qo`lga kiritdilar. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bilan Norvegiyaning Lillehammer, AKShning Atlanta, Avstraliyaning Sidney shaharlarida bo`lib, o`tgan Olimpiya va Osiyo o`yinlarida hamda jaxon chempionatlarida muvofaqiyatli qatnashgan respublika sportchilari va ularning ustozlari davlat mukofotlari bilan takdirlandilar. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Olimpiya o`yinlarida, jaxon chempionatlarida yukori natijalarga erishgan mamlakat sportchilari tomondan qo`llab-quvvatlash yuzasidan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, Olimpiya o`yinlarida birinchi o`rinni egalagan sportchiga 100 ming, ikkinchi o`rin uchun 50 ming va uchinchi o`rin uchun 25 ming AKLP dollari miqdorida mukofotlar belgilandi. Mamlakat terma jamoa a`zolariga jaxonning nufuzli musobaqalariga sifatli tayyorgarlik kurishi uchun istalgan sport inshootlaridan bepul foydalanish xuquqi, shuningdek, boshqa shart-sharoitlar yaratib berildi. Ana shunday imkoniyatlar O`zbekiston sportchilarining Sidney va Afrika Olimpiadalarida muvofaqiyatli qatnashishini ta`minladi,

Mamlakatda yosh avlodning jismoniy va ma`naviy barkamoligini ta`minlash, sog`lom turmush tarziga intilish va sportta mexr-muxabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, axoli yashaydigan joylarda zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog`ini

barpo etish hamda sport uskunalari va jixozlari bilan ta`minlash ishlarini yanada faolashtirish maqsadida, 2002 yilda "O`zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi" tufayli. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg`arma xomiylik kengashining raisi etib saylandi. Korakalpog`aston Respublikasi Yuqori Kengesh raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar xomiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

Sport mashg`ulotlariga o`quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, "O`quvchi: va talaba yoshlarni sportga jalb kilishga karatilgan uzluksiz sport musobaqalari tazimini tashkil etish tug`risida" 2003 yilda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Malkamasining qarori taqdim qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta`lim maktablari, akademik listey va kasb-hunar kolejlari o`quvchilari xamda oliy ta`lim muassasalari talabalarining "Umid nixollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining xududlarda respublika final bosqichlarini o`tkazish rejasi belgilandi.

Bolalar uchun sport tovarlari turlarini kupaytarish hamda mintaqalar, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik listeylar, kasb-xunar kolejlari, oliy o`quv yurtlari extiyojlarini ta`minlashga karatilgan "Bolalar sportini targ`ib qilish va bolalar uchun sport tovarlari ishlab chiqarish turlarini kengaytirish bo`yicha ko`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida" Vazirlar Malkamasining (2003 yil) qarori qabul qilindi uning asosida mamlakatda sport kiyimlari va anjomlarini ishlab chikarish yo`lga qo`yildi. Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orkali keng targ`ib qilish, uning moxiyatini mamlakat axolisiga keng etkazish maqsadida, Vazirlar Malkamasining 2003 yilda "Ommaviy sport targ`ibotini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to`g`risida"gi qarori qabul

qilinib, unga binoan, O`zbekiston televideniesida maxsus "Sport" kanali tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir qonun farmon va loyxlari bu soxaning tez sur`atlar bilan taraqqiy etishiga, xalqaro maydonda O`zbekiston nufuzi va obrusining oshishiga, qolaversa, axolining, ayniqsa, O`quvchi-yoshlarning sportga bo`lgan munosabatini o`zgartirishga olib keldi. Mamlakatda sog`lomlashtirish ishlari barcha ijtimoiy va ishlab chikarish soha muassasalarida jonlandi, boshlang`ich sport jamoalarini ishlari faolasha boshladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan 504 ta bolalar va O`smirlar sport maktablari va iqtisoslashgan bolalar va O`smirlar olimpiya zaxiralari maktablari, 11 ta olimpiya o`rinbosarlari bilim yurti hamda 8 ta Respublika oliy sport maxorati maktabida yuqori malakali, iste`dodli sportchilar tayyorlanmoqda. Malakali sportchilarni tayyorlash bilan birga, ommaviy sportni rivojlantirishda sport jamoalari, federastiyalar va boshlang`ich sport jamoalari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi. 1991. yilda yurtimizda 52 sport turi mavjud bo`lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 70 taga etdi. Bugungi kunda amada bo`lgan 70 ta sport turidan 25 tadan ortigi barcha xudularda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun tegishli sharoitlar yaratilmokda. Mazkur ishlar evaziga sport bilan shug`ullanayotganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda . Futbol, tennis, kurash, voleybol, basketbol, gandbol, engil atletika bilan shugulanuvchilar soni yildan-yilga tez sur`atlar bilan, ayniqsa yoshlar orasida, ommaviylashib bormoqda. Jumladan, 2003 yilda futbol bilan shug`ulanuvchilarning soni 1992 yiliga nisbatan 172 foizni tashkil etdi, kurash bilan shug`ulanuvchilar esa 4,6 barobarga ko`paygan. Ta`kidlash joizki, barcha xudularda ana shunlay o`shish xolati ko`zda tutilmoqda. Joylarda sport turlarining jadal rivojlanishi shug`ulanuvchilar

sonining muntazam oshishiga va axolini ommaviy tarzda qamrab oladigan turli musobaqalarning tashkil etilishiga zamin yaratmoqda. Bu musobaqalar orkali o`quvchi-yoshlar, nogironlar, ishchi va xizmatchilar, barcha ijtimoiy qalamga mansub axoli vakillari sportga jalb qilindi. Xar yili umumta`lim: maktabi, kasb-xunar koleji, akademik listey o`quvchilari, talabalar, ishchi va xizmatchilar, huquq-targ`ibot, muxofza xodimlari o`rtasida basketbol va meybol buyicha «Kamolot kubogi», miliy sport o`yinlari musobaqalari, xarbiy xizmatga chakiriladigan yoshlar o`rtasida shunqorlar»xarbiy sport musobaqalari, nogironlar o`rtasida jasorat- iroda! g`alaba» musobaqalari, uningdek ayolar, kubik, xotin-qizlari spartaklari va boshqalar muntazam o`kazib kelinyapti. 2000 yildan boshlab uzluksiz sport Toshkent shaxrida milliy sport turlari rivojlantirish markazi tashkil etildi.

## **1.2. O`zbekiston sport bayramlarida BO`SMlarining roli va o`rni.**

Yosh avlodni sport bilan shug`ulanish, sog`lom turmush tarziga amal kilish, ma`naviy va jismoniy kamolga intilish, mexr-muxabbat, o`z yurti bilan g`ururlanish ila tarbiyalash ishlari asosiy yunalish sifatida belgilandi. O`zbekistonda bolalar ommaviy sportini rivojlantirishning ta`minlash maqsadida, joylarda sport muassalarining barpo etilishi, yangi-yangi sport turlaridan to`garaklar faoliyatining yo`lga ko`yilishi, ularning tegishli jixozlar va malakali sport murabbiylari bilan ta`minlanishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanayotgan bolalar va O`smirlarni yildan-yilga ortib borishiga asos bo`lmokda.

Mamlakat Prezidenti boshchiligidagi "O`zbekiston Bolalarini sportini rivojlantirish jamg`armasi" Jamg`armaning metodik kengashi o`z faoliyatini joylarda bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy bazasini

shakllantirish, axoli manzilgoxarida zamonaviy bolalar sporti komplekslari farmonigini barpo etishdan boshladi. Bolalar sportini ikki tomon hamda rivojlantirish maqsadida, mamlakat va xududlar miqyosida sharoit bilan shug`ullanayotgan bolalar va o`smirlar soni aniklanib, ilmiy va tibbiy asoslar hamda xudularning tabiiy sharoitlari xisobga olingan xolda, istiqboli sport turlari rivojlantirida boshlandi. Jamg`arma orqali sport inshoati kurulishi va ta`mirlanish ishlari yo`lga ko`yildi. Reepublikada tibbiy va ilmiy asoslangan 2,8 mingdan ortik, sport to`garaklari tashkil qilinib, ularga 85 mingdan ortik, bolalar jalb qilindi.

Bolalar ommaviy sport maxorati buginidagi tadbirlar, ommaviy razryadlar ko`rsatkichidan ikkinchi-sportning yukori maxorati buginiga, O`smir-yoshlar sporti orqali tayyorlanadigan 1-chi razryali, sport ustasi nomzodi va "sport ustasi darajasiga chikish imkoniyatlarini yaratadi. Mamlakatda ommaviy va yukori sport tizimi doirasidagigi Bolalar va O`smirlar sport maktablari, olimpiya o`rinbosarlari kolejlari, Respublika oliy sport maxorati maktablarida yukori malakali va iste`doli, o`z Vatani shon-shuxrati uchun kurasha oladigan sportchilar tayyorlanishi yo`lga qo`yildi. Malakali sportchilarni tayyorlashdagi birlamchi chora tadbirlar Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xalk, ta`limi vazirligi va Kasaba uyushmalari tizimida faoliyat ko`rsatayotgai 504 bolalar va O`smirlar sport masobaqlarida (BUSM) amalga oshirilmokda. Yoshlar, bolalar va O`smirlar sport maktablarida malakali sport ustozlari ko`lostida o`kishdan tashkari vaqtda sport bilan shug`ulanib, yukori bilim va sport maxoratiga ega bo`lganlar esa, sport kolejlariga o`kishga qabul kilinadilar. Zamonaviy o`quv va sport bazasiga ega bo`lgan ana shunday kolejlar Jizzax, Xorazm, Anlijon, Farg`ona shaxarlarida foydalanishga topshiridi. Vazirlar Malkamasining 1996 yil 17 yanvardagi «O`zbekistonda futbolni

rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 27-sonli qaroriga muvofik,, Korakalpog`istoi Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida futbol maktab-internatlari tashkil etildi. Vazirlar Malkamasining «O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 1999 yil 27 maydagi 271-sonli qaroriga asosan viloyatlar markazlarida olimpiya o`rinbosarlari kolejlari tashkil etilmokda.

Bolalar va O`smirlar o`rtasida ommaviy uch bosqichli musobaqalardan tashqari yili 60 dan ortik sport turlari bo`yicha mamlakat, viloyat, tuman birinchiliklari o`tkazilib kelinmoqda. musobaqalari tizimi asosida talabalar o`rtasida «Universitet, o`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi tizimida «Barkamol avlod» va o`quvchilarning «Umid nixollari» sport musobaqalari o`tkazila boshlandi.

### **1.3.O`zbekistonda xalqaro sport musobaqalari va uzluksiz ta`lim tizimida sport musobaqalari.**

Mustakillik xalkimizning miliy sport o`yinlarini Kayta tiklash va xalqaro maydonga olib chikish imkoniyatini berdi. Mamlakatda 1992 yildan buyon miliy sport turlari va xalk o`yinlari festivali o`tkazilib, 1999 yildan ayolar o`rtasida ham «To`maris» miliy sport musobaqalari va xalq o`yinlari festivali o`tkazila boshlandi.

Mamlakatimiz raxbariyatining doimiy e`tibori tufayli malkimizning faxri bo`lgan o`zbek kurashi xalqaro maydonda tan olindi. 1992 yildan Termiz, Buxoro, Urganch,, Shaxrisabz, Toshkent va boshqa shaxarlarda o`zbek kurashi bo`yicha Amir Temur, At-Termiziy, Baxovuddin Nakshband, Bobur Mirzo, Paxlavon Mahmud xotiralariga bag`ishlangan xalqaro turnirlar o`tkazilib kelindi.O`zbek kurashining yangi qoidalari,

yangi kiyimi tasliqlanib, 1992 yilda Janubiy Koreyada, 1993 yilda Kanaada, 1994 yilda Yaponiyada, 1995 yilda Xindistonda, 1996 yilda Atlantada, 1998 yilda Mexiko va Moskvada o'tgan xalqaro turnirlarda targ'ib qilib, ilmiy tizimga asoslangan tarzda dunyo miqyosiga olib chiqildi.

1998 yilda Xalqaro kurash assostiastiyasi tashkil etilib, 1999 yil Toshkent shaxrida kurash buyicha birinchi, 2000 yil Turkiyaning Antaliya shaxrida ikkinchi, 2001 yil Vengriyaning Bulapesht shaxrida uchinchi, 2002 yil esa Jaxon chempionatlari o'tkazildi. Shu bilan birga, belbog'li kurash, turon yakka kurashi, ko'pkari kabi miliy sport turlari ham xalqaro sport maylonlarida munosib o'rin egalay boshladi. Mazkaziy sport turlari bo'yicha xam mamlakatda muntazam ravishda xalqaro musobaqalar tashkil etilmokda.

2000 yilda Toshkent shahrida Milliy sport turlarini rivojlantirish markazi tashkil etilgani bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish imkonini bermoqda. Uzoq, tarixga ega bo'lgan miliy kurashimiz umuminsoniy qadriyatlarni o'z usularinint boyligi bilan qiska vaqt ichida ko'pgina mamlakatlar sport jamoatchiliga e'tiborini tortdi. Mamlakatimiz Prezidenti: va sport faollari sa'y xarakati tufayli xalqaro miqyosda tobora ommalashib borayotgan sportning b}g turi yakin kelajakda Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishi, shubhasiz. O'zbekiston sportchilari eng yirik xalqaro musobaqalarda Olimpiada va Osiyo o'yinlarida, jaxon va Osiyo chempionatlarida mustaqil. davlat vakili sifatida qatnashishdek ulkan va ma'suliyatli sharafga muyassar bo'ldi

Mamlakat sportchilari xalqaro sport maylonlarida mustaqil O'zbekiston bayrog'i ostida' ilk bor 1992 yilda Barselonada o'tkazilgan Olimpiadada qatnashdilar. O'sha yilning o'zidayok, 17 nafar vakillarimiz 3

ta oltin. 2 ta kumush va 1 ta bronza medalarini qo`lga kiritib, sport dunyosida katta ikoniyatlarga ega bo`lgan yangi davlatning saxobiyatini namoyish etdilar.. 1992 yilda Maksika bo`lib, o`tgan Butunjaxon shaxmad olimpiadasida O`zbekiston erkaklar terma jamoasi 100 dan ortik, mamlakat vakillarini qo`lga kiritdi,'Universiada" sport o`yinlarining 1-111 bosqich musobaqalarini o`tkazish tartibi boshlandi.

«Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqlarining final bosqichlari 2000 yilda Namangan,, 2001 yil Jizzax, 2002 yilda Farg`ona va Buxoro viloyatlarida o`tkazilgan 2004 yildan boshlab Ushbu musobaqalarning respublika final bosqichlari uch yilda bir marotaba o`tkazilmadi. 2012 yildan boshlab sport musobaqlarning ikkinchi davrasi boshlanadi. Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligini ta`minlashning ma`lim sharti bo`lganlar SOG`LOM va barkamol avlod tarbiyasiga, jismoniy tarbiya va sportni keng rivojlantirish ishlariga istiqloqlarning dastlabki kunlaridanok kirishildi, 1992 yil yanvarida «O`zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport tug`risida»gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining SOG`LOM avlodni voyaga etkazish darajasidagi karashlar ham erkin va mustaqil fikrlaydigan, o`z xaq xuquqlarini taniydigan, faqat o`z bilimi, kuchi va imkoniyatlariga (resurslariga) tayanadigan, Vatan va xalq manfaati uchun butun borlig`i bilan kurasha oladigan insonlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport xarakterining o`rni va ahamiyati beqiyos ekani o`z ifodasini topdi. Avvalo, o`quvchi yoshlarga jismoniy-tarbiya va sportga katta ishtiyok va qizqish uyg`otib, ularni bu sohaga uzluksiz jalb qila oladigan, milliy ta`lim tizimi doirasida o`tkaziladigan, yoshlarni salomatlik, komillik va go`zalik g`oyalari ruxida tarbiyalaydigan ommaviy sport xarakterini shakllantirish zarur e`di «Kamolot» jamg`armasi dastlabki yillarda xalq ta`limi, oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirliklari,

madaniyat va sport ishlari vazirligi

Mamlakat axolisining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish orqali sog`lom turmush tarzini ta`minlash, turli ijtimoiy illatlarning oldini olish maqsadida uch butinli yagona sport tizimi negizida ommaviy sport xarakterining milliy modeli ilmiy asosda tuzildi. Ommaviy sport xarakati milliy modeli kuyidagi tamoyillarga asoslandi: axolining barcha qatlamlarini kundalik sport xarakteriga jalb etib, sog`lom turmush tarzini ta`minlash va millat genofondini sog`lomlashtirish; mamlakat axolisining yoshi, xayotiy ko`nikmasi, bilimi, ijtimoiy xolati, imkoniyati, sharoiti, mustaqil xarakterlanishning inobatta olinganligi; model barcha o`rinlari uzviy va mantiqiy bog`langanligi; modellar bir-birining funkstional maqsadlarini anik belgilash asosida ularning o`zaro xarakter tizimlari ishlab chikilganligi; modelda belgilangan funkstional maqsad axoli o`rtasida sog`lom hayot tarzini ta`minlashning funkstional maqsadiga ta`sir etishi va zanjirsimon stiklga egaligi; modelning funkstional maksadi amalga oshishi bilan o`quvchi va talaba yoshlar orasidan yukori malakali, Vataniga mexr-muxabbati yuksak, o`z mamlakati obro`si uchun munosib kurasha oladigan iktidorli sportchilar etishib chiqishi.

Mazkur tizim u 5 ta bo`limdan tashkil topib, u maktab yoshigacha bo`lgan bolalarni, umumta`lim maktablari o`quvchilarini, o`rta maxsus kasb-xunar ta`limi tizimidagi yoshlarni, oliy ta`limdagi talabalarni hamda ishlab chikarish soxasidagi va undan tashqaridagi barcha yoshdagi fukarolarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport o`yinlariga jalb kilish, ularning SOG`LOMLIK Darajasini sport xarakterlari orkali oshirishga qaratdi.

#### **1.4. Uch bosvichli sport musobaqalarning funkstional maqsadlari**

Birinchi blokning asosiy funkstional maksadi maktab yoshigacha bo`lgan bolalarda birlamchi jismoniy xarakter ko`nikmasini dastlab oila,

bogcha va maxallada shaklantirish; bolalar kuni sport bilan shugʻullanish koʻnikmasini xosil qilish, bu kerakli va qiziqarli vositani turli oʻyinlar orkali joriy etish; bolalarni yoshiga va xoxishiga mos ravishda faol xarakterga keltiradigan tizimning ilmiy va amaliy asosini mamlakat miqyosida yaratish va uni keng joriy qilishdan iborat.

Xalq taʼlimi vazirligi, xokimliklar, Bolalar sportini rivojlantirish, «SOGʻLOM avlod uchun», «Maxalla» Jamgʻarmalari va boshqa tashkilotlar orkali ushbu blokning funkstional maksadi amalga oshiriladi.

**Ikkinchi blokning funkstional maksadi** olti miliondan ortiq umumiy oʻrta taʼlim tizimi oʻquvchilarining dastlabki jismoniy xarakter koʻnikmalarini jismoniy tarbiya darslarida va musobaqalarida mustaxkamlash hamda ularning sportta boʻlgan mexrini uygotish orkali jismoniy sogʻlomligini taʼminlash; «Umid nixolari» sport musobaqalari, maktab va maktabdan tashkari sport toʻgaraklari faoliyati orkali oʻquvchilarning sport turlariga qiziqishini kuchaytirish; oʻquvchilarning sport turlari buyicha kobilyatlarini aniklash, iqtidorli yoshlarni bolalar va Oʻsmirlar sport maktabi, maxsus bolalar va Oʻsmirlar sport maktablari va olimpiya zaxiralari sport kollejlariga yoʻnaltirish hamda bosqich musobaqalaridagi ishtirokini taʼminlash; jismoniy tarbiya va sportni maktab oʻquvchilarining kundalik eltiyojiga aylantirishdan iboratdir.

Xalq taʼlimi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, xokimliklar, Miliy Olimpiya qoʻmitasi, Oʻzbekistan Bolalar sportini rivojlantirish, «SOGʻLOM avlod uchun», «Maxalla» Jamgʻarmalari va boshqa tashkilotlar orqali ushbu funkstional maqsad amalga oshiriladi.

### **Uchinchi blokning funkstional maqsadi**

kasb-xunar taʼlimi tizimidagi oʻquvchilarning jismoniy kobilyatlarini namoyish etish; jismoniy tarbiya va sport kundalik eltiyojiga

aylangan o`quvchilarning «Barkamol avlod» sport musobaqalarida faol ishtirokini ta`minlash; sport bilan shug`ulanaligan, sog`lom turmush tarziga amal qiladigan, ma`naviy va jismoniy yuksalishga intiladigan yoshlarni tarbiyalash, ular orasidan mamlakat terma jamoasi a`zolari va a`zolikka nomzolari etishtirish.

Madaniyat va sport ishlari vazirligi, xokimliklar va Miliy Olimpiya qo`mitasi, O`zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish, «SOG`LOM avlod uchun», «Maxalla» jamg`armalari va boshqalar orkali ushbu funkstional maksad amalga oshiriladi.

**Turtinchi blokning funkstional maksadi** oliy ta`lim muassasalari talabalarining umumiy o`rta va o`rta maxsus kasb-xunar ta`limi tizimida sport turlaridan to`plagan tajriba va maxoratlarini «Universiada» sport musobaqalarida yanada

faolashtirish; talabalarning jismoniy va ma`naviy salomatligini mustalkamlash, ular orasidan yukori malakali sportchilarni etishtirishdan iborat.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, xokimliklar, Miliy Olimpiya qo`mitasi va boshqa tashkilotlar orkali ushbu funkstional maqsadni amalga oshirish belgilandi.

**Beshinchi blokning funkstional maksadi** ta`lim tizimida jismoniy tarbiya va sport xarakatida toblanib, ishlab chikarish va ijtimoiy sohaga o`tgan mutaxassislarning sportga bo`lgan eltiyojlarini soxalar buyicha sport musobaqalari, oilaviy va boshqa o`yinlar orkali kondirish va jamiyatda SOG`LOM turmush darajasini mustaxkamlash; sport salomatlik xarakatidan bosqichma bosqich o`tib, sportni kundalik eltiyojiga aylantirgan ota-onalarning o`z bolalarini jismoniy tarbiyaga jalb etib, ularga sportning birlamchi asoslarini shaklantirishdan iborat. Kasaba uyushmalari

Federastiyasi va xokimliklar, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Bolalar sportini rivojlantirish, «SOG`LOM avlod uchun», «Maxalla» jamrarmalari va boshqa tashkilotlar orkali ushbu funkstional maksadning amalga oshirilishi belgilandi.

Miliy modelning eng asosiy tarkibiy qismi O`zbekiston o`quvchi-yoshlarining uch bug`inli uzluksiz sport musobaqalari tizimi bo`lib, u o`sib kelayotgan yosh avlod qalbida sportga muxabbat tuyg`ularini kamol toptirish, ularning jismoniy kobiliyatlarini namoyish etish, sport bilan shug`ullanish uchun zamonaviy talablar darajasidagi shart-sharoitlarni yaratish orkali ommaviy sportni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu tizim o`quvchi yoshlarni sportga ommaviy jalb kilishda o`zviylik va xomiylik, maqsadida va samaralorlik tamoyilariga asoslanib, kuyildagi natijalarga erishishni ko`zda tutadi:

SOG`LOM turmush tamoyinlarini yoshlarning kalbi va ongiga singdirish hamda kundalik eltiyojiga aylantirishga yunaltirilgan tegishli tuzilma va boshqaruv mexanizmini yaratish, ular orkali xududlarda ommaviy sport xarakatlarini shaklantirish;

«Ta`lim to`g`risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash miliy dasturi talablari doirasida o`quvchi - yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qila oladigan yagona miliy model sifatida, umumiy o`rta ta`lim , o`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi muassasalari o`quvchilari hamda oliy o`quv yurtlari talabalarining jismoniy tarbiya va sportga bo`lgan xavas va intilishini, qobiliyatini aniklash va ro`yobga chikarish, o`zlari tanlagan sport turlari bo`yicha muntazam shug`ulanishini ta`minlash.

Boshlang`ich davrda tizim tarkibidagi «Umid nixollari» lar yili, «Barkamol avlod» bellashuvlari toq yillarda va «Universiada» musobaqalarining juft yildarda o`tkazilishi maksadga muvofik deb belgi-

landi. Tashkiliy jixatdan qator qiyinchilik va muammolarga qaramasdan musobaqalarni o`tkazish shunday belgilanishida, asosan ta`lim tizimidagi o`quvchi yoshlarni kiska muddatda uzluksiz sport xarakatiga jalb etish va mazkur musobaqalar orkali joylarda ommaviy sport turlarini rivojlantirish hamda maktab, listey, kollej, oliy o`quv yurtlari, shuningdek, tuman, viloyat sport bazalarini talab darajasida tashkil etish, jixozlash va sport mutalassislari- ning ishlarini yanada faolashtirish ko`zda tutildi. Tizim musobaqalari ilk bor 1999 yilda mamlakat universitetlari jamoalari o`rtasida sportning engil atletika va o`yin turlari buyicha o`tkazildi. Tajriba tarzida o`tkazilgan bu musobaqada tizimning barcha tashkiliy va boshqaruv jixatlari ikkala tomon ham ko`rilib, uning ishlash mexanizmlari o`rganildi. Modelni mamlakat darajasida keng joriy qilishdan olib, avvalgi yillarda o`tkazilgan o`quvchi va talabalar o`rtasidagi barcha musobaqalarning tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari hamda universitetlararo sport bellashuvlarida talabalarning ko`rsatgan natijalari taxlil qilinib, tegishli xulosalar asosida uzluksiz ta`limdagi sport xarakatining uch bo`g`inli sport musobaqalarini tashkil etish, o`tkazish va olov yokish ritualini boshqarish tartibi, uning boshqaruv tizimiga xos tashkiliy mexanizmhamda mezonlari ishlab chiqilib, taklif qilindi. Tizim musobaqalarining final bosqichlariga tayyorgarlik kurish, ularni joylarda xokimliklar, davlat va jamoa tashkilotlari ishtirokida o`tkazish bilan bog`lik boshqaruv va amaliy masalalarni tezkorlik bilan xal kilish hamda muvofiqlashtirish maqsadida respublika darajasida tashkiliy qo`mita tuzilshi belgilandi. Bundan tashkari, tashkiliy ko`mitaning sport musobaqalarini o`tkazish to`g`risidagi topshiriqlarini ta`lim tizimidagi barcha o`quv muassasalarida o`z vaqtida bajarilishini ta`minlash uchun joylarda ishchi guruxining tashkil etilishi maksadga muvofik deb topildi. Amaliy ishlarni operativ darajada xal kilish

maqsadida tashkiliy ko`mitaga xakamlar xay`atining tarkibi, belgilangan sport turlari buyicha va musobaqalar final bosqichlarini o`tkazish to`g`risidagi jadvallar va 1- 2 bosqich musobaqalarining xisobotini hamda sport turlari bo`yicha musobaqalar qoidasi, ularni o`tkazish to`g`risidagi shartlarni tasdiqlash xuquqi berildi.

Mazkur tizimning birinchi respublika final musobaqalari «Universiada» o`yinlaridan boshlanishilar tomon ham o`rganilib, u sportning etti turi buyicha o`tkazildi. Musobaqalarda o`ynaladigan 7 ta sport turini belgilashda milliy va olimpiya uyinlari dasturidan o`rin olgan sport turlariga aloxida e`tibor kilinib, asosan o`quvchi- yoshlarning mazkur sport turlariga bo`lgan qizqishlarini oshirish va ularni bu o`yinlarga keng jalb etishga ahamiyat berildi. Tizim musobaqalarining aynan uchinchi o`rindan joriy kilinishidan maqsad, ikkinchi o`rta-maxsus, kasb-hunar va birinchi umumiy o`rta ta`lim buginida respublika final musobaqalarini o`tkaz kunga qadar o`quvchilarni bosqich o`yinlari orkali ommaviy sport xarakatiga keltirib olish, ularning sport turlariga bo`lgan kobiliyati, ko`nikma hamda maxoratini uzluksiz belashuvlar orkali rivojlantirib olish edi.

Ta`lim tizimining barcha bosqichlarida o`qiydigan o`quvchi yoshlarni qiska muddat respublika mikyosida uzluksiz sport harakatiga jalb etish maqsadida «Umid nihollari» sport musobaqalarini xar yili, «Barkamol avlod» o`yinlarini toq yillarda, «Universiada» musobaqalarini esa juft yillarda may va iyun oylarida final bosqichi sifatida o`tkazish tartibi asoslanib, joriy etila boshlandi. Musobaqalarni uchinchi o`rindan ikkinchisiga va undan birinchisiga ketma-ketlikda izchil o`tkazilishi mazkur modelning boshqaruv mexanizmlarini amalda bosqichma-bosqich sinovdan o`tkazish imkonini berdi. Chunki tizimning uchinchi bugini

barcha bosqich musobaqalarida fakat 100 mingdan ziyod talaba ishtirok etishi uning millionlab o`quvchilarni qamrab oladigan ikkinchi va birinchi o`rinlaridan kura boshqaruv va tashkiliy mexanizmlarini bo`lginda amalda qilib ko`rish ham zarur xolarda ularga tezkorlik bilan o`zgartirishlar kiritish imkoniyatini berdi. Modelning ikkinchi bugini «Barkamol avlod» sport musobaqalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlari yanada takomillashtirilib, millionlab o`quvchilarni kamrab oladigan eng asosiy bugin - «Umid nixollari» o`yinlari uchun mustaxkam zamin yaratidi.

Tizimni joriy etishdagi boshlang`ich davrda «Umid nixollari» sport musobaqalarining final bosqichini xar yili o`tkazish maqsadga muvofiqligi asoslanib, ushbu tartib belgilandi. Bunday tartib orqali umumiy o`rta ta`limdagi olti milliondan ortik jismoniy tarbiya va sportga qizqishi va ko`nikmasi bo`lmagan o`g`il-kizlarni kiska vaqtda, sport turlaridan o`tkaziladigan bosqich musobaqalariga jalb etish hamda uzluksiz musobaqalar, ommaviy sport bilan kamrab olish, tajriba va maxorati bo`lganlarni keyingi bosqichga olib chikib, belashtirish imkoni ko`rildi.

Shu tariqa 2000 yilda «Universiada» o`yinlari final bosqichini o`tkazish bilan bog`lik barcha me`yoriy xujjatlar va ularni amalga oshirishga doir ko`rsatmalar hamda tegishli qoidalar belgilangan tamoyinlar asosida yaratildi. Musobaqa o`tildigan joylarda yil davomida barcha tashkiliy ishlar jaxon anlozalari darajasiga etkazilganidan keyin musobaqalarga tayyorgarlik kurish va uni o`tkazish respublika tashkiliy qo`mitasining qarori bilan "Universiada» bellashuvlari Namangan viloyatida o`tkaziladi.

Musobaqalarda mamlakatning 61 ta oliy ta`lim muassasalaridan faqat 42 tasi qatnasha oldi, lekin ular ham belgilangan 7 ta sport turining barchasida talabalar ishtirokini ta`minlay olmadi. Musobaqa dasturiga

kiritilgan sportning engil atletika, o`yin turlari talabalar orasida rivoj topmagani sababli 1 oliy o`quv muassasasi sportning engil atletika, 30 tasi voleybol, 28 tasi basketbol, 26 tasi futbol, 28 tasi- shaxmat, 27 tasi stol tennisi, 27 tasi katta tennis, 29 tasi kurash turlarida qatnasha olmadilar.

Belgilangan tartib asosida tizimning ikkinchi bugini o`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi muassasalari o`quvchilarining «Barkamol avlod» sport musobaqalari finali 2001 yilda sportning 9 turi bo`yicha Jizzax viloyatida o`tkazidi.

2000 - 2001 yillar davomida tizimning birinchi va asosiy bugini «Umid nixollari» musobaqalari finaliga juda katta tayyorgarlik ko`rilib, 2002 yilda Farrona viloyatida muvaffakiyatli o`tkazidi.

Mazkur tizim musobaqalari doirasida 9672 ta umumiy o`rta ta`lim maktabi, 860 ta akademik listey va kasb -xunar kolleji hamda oliy o`quv yurtlarining olti milliondan ortik o`quvchi va talaba yoshlari bosqich o`yinlarida ishtirok etib, Namangan, Jizzax va Farrona viloyatlarida o`tkazilgan final musobaqalarida 6977 sportchi belgilangan sport turlari buyicha o`zaro belashdi. O`quvchi va talabalarning final musobaqalarida ko`rsatgan natijalaridan ta`lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport ishlariga etarli darajada e`tibor berilmasligi oqibatida aksariyat yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanmayotganliklari, joylarda esa mazkur sohaga bo`lgan munosabat yuzakiligi namoyon bo`ldi.

Barcha o`rinlarning final musobaqalarida birinchi o`rinni egalagan Toshkent shaxri, ikkinchi va ettinchi o`rinlarni egalagan Namangan, Buxoro, Farrona, Andijon Samarkand, Toshkent viloyati jamoalarining sportchilari engil atletika, so`zish, sport o`yinlari va boshqa sportning murakkab turlari buyicha ko`rsatgan natijalari kichik razryadi sportchilar normativ talabi darajasida yoki undan ham past bo`ldi. Xorazm,

Qoraqalpog`iston, Navoiy, Qashkadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo viloyati jamoalarining sportchilari engil atletika, suzish, stol tennisi va boshqa sport turlaridan musobaqada ishtirok eta olidi va odingi o`rinlardan joy egaladi.

Tizim musobaqalarining natijalari orqali Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri ta`lim sport muassasalari hamda joylardagi jismoniy tarbiya va sportdagi mavjud kamchiliklarning sabablari taxilil qilinib, quyidagi xulosalar olindi: joylarda o`quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb kilish ishlari dasturiy asosda emas, balki yuzaki, mavsumiy tadbirlar sifatida olib borilayotgani; jismoniy tarbiya va sportning normativ bazasining asosi bo`lgan «Barchinoy» va «Alpomish» kompleks normativi joylarla yuzaki joriy kilingani; sportning faqat yakkakurash turlarini rivojlantirish, olimpiya va miliy sport turlariga etarli ahamiyat kilinmagani; jismoniy tarbiya va sport darsliklarining zamon talabi darajasida yaratilmagani, o`g`il va kiz bolalarning yoshiga ko`ra o`yin va sport turlari belgilanmagani; ta`lim muassasalarining 9-sinflarida jismoniy tarbiya va sport o`kituvchilarining etishmasligi, boshlang`ich 1-4 sinflarning ustozlarida jismoniy tarbiyadan oshirib borish kunikmalari yo`qligi, yukori sinf o`kituvchilarining professional darajasi talabga javob bermasligi; maktab va uning tashqarisidagi sport va sog`lomlashtirish ishlarining qoniqarsiz tashkil etilgani; ta`lim tizimida yoshlarning sportga bo`lgan qizqishi va kunikmalarini shakllantirish yuzasidan tegishli amaliy ishlar olib borilmasligi; maktablardagi mavjud sport bazalari axvolining yomonligi, sport jixozlarining etishmasligi, formal ravishda ochilgan sport shubxalarining samarasizligi; o`quv muassasalaridagi jismoniy tarbiya darjarlarning anik maqsadga qaratilmagani, bosqich musobaqalari

nomigagina o`tkazilayotgani; bolalar va O`smirlar sport maktablarining ta`lim yunalishlari rastional belgilanmagani, ularda tayyorlanayotgan sportchilar maxorati talab darajasida emasligi; ta`lim tizimida mexnat qilayotgan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining mexnat samaradorligi talab darajasida emasligi; olimpiya sport turlarini joylarda ommaviy rivojlantirish orkali yosh iktidorli sportchilarni saralash, ularni tuman, viloyat musobaqalarida maxoratini oshirib, katta shijoat bilan mamlakat sharafi uchun belasha oladigan darajada tatarbiyalash ishlari yaxshi yulga kuyilmagani; xakamlar malakasini sport federastiyalari bilan birgalikla oshirish tashkil etilmagani, ular etarli tajribaga ega emasligi; joylarda asosiy e`tiborni yoshlar orasidan qobilyatli sportchilarni tayyorlashga emas, balki xakamlarning baxolashdagi kamchiliklaridan foydalanib, engil g`alabaga erishishga qaratilishi ko`za tutildi.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish joylarda sportni ayniqsa, bolalar sportining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, yanada rivojlantirish maqsadida mamlakat raxbarining tashabbusi bilan O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasii tuzildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti ushbu Jamg`arma xomiylik kengashining raisi etib saylandi. Jamg`arma joylarda bolalar sportining moddiy bazasini shakllantirish, qishlok va shaxarlarda zamonaviy bolalar sport majmualarini barpo etish, sport uskunalari va anjomlari bilan jilozlash hamda ulardan samarali foydalanishni ta`minlash uchun zarur moliyaviy va moliy mablag`larni tashkilashtirishga qaratildi. Mamlakatda joriy qilingan jaxonda yagona, uch o`rinli yangi tizim jismoniy tarbiya va sportni ta`lim muassasalarida ommaviy rivojlantirish ham da yukori malakali sportchilarni tayyorlashda katta burilish bo`ldi.

Mazkur tizim ta`lim muassasalarida ommaviy sportni yukori

pogʻonalarga koʻtarishga turtki boʻlib, joylardagi takror, oʻzaro bogʻlik boʻlmagan va anik maqsadga qaratilmagan musobaqalarni tartibga keltirdi; taʼlim tizimilagi oʻquvchi va talabalarning «Talaba» va «Yoshlik» sport jamiyatlarining tashkil eshidishiga hamda joylarda yildan yilga mavkie tushib ketayotgan sportning suzish, engil va ogʻir atletika kabi turlarini rivojlantirishga sabab boʻldi; bugin bosqichlari oʻyinlarida sport turlari buyicha iqtidorli sportchilarning maʼlumotlar bankini shaklantiridi, sportning nafis turi badiiy gimnastika musobaqalar dasturiga kiritidi va viloyatlarda keng rivojlantiridi;

Namangan, Jizzax, Fargʻona, Buxoro, Xorazm va Andijon viloyatlari hamda 30 dan ortiq tuman markaziy stadionlari, oʻquvchi talabalar yotoqxonalarini va boshqa obʼektlar jaxon anlozalariga mos ravishda qaytadan taʼmirlandi yoki qayta kerakli; umumiy oʻrta, maxsus, oliy oʻquv yurtlarida voleybol, basketbol, koʻl toʻpi va boshqa sport turlaridan yukori malakali sportchilar etishib chikishiga va ularning oliyliga musobaqalarida jamoa boʻlib, qatnashishiga hamda mamlakat mikyosida mazkur sport turlaridan musobaqalarning kaytadan tiklanishiga, superigalarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi; mamlakat sport federastiyalari va oliy sport maxorati maktablarining mutaxassislarini oʻquvchi-yoshlarning sport musobaqalariga jalb qilinishi, yurtimizda bosh xakamlar va xakamlar xayʼatlarining shaklanishiga omil boʻldi; viloyat xokimliklari va tegishli taʼlim vazirliklari hamda sport tashkilotlarining oʻquvchi-yoshlarni sportga keng jalb kilish borasidagi xarakatlarini birlashtirdi. Jismoiiy tarbiya va sportni taʼlim bosqichlarida maqsadi rivojlantirish, sportning moddiy-texnika bazasini talab darajasida qayta tiklash, yangi -yangi sport majmualarini qurish va musobaqalar ning yangi davrasi aylanib kelgunga kadar ularning uzluksiz ishlab turishi va yanada

rivojlanishiga asos bo`ldi.

Tizim musobaqalarini mamlakatda jismoniy tarbiya va sport xarakatini faollashishiga ko`rsatgan ijobiy ta`siri orqali erishilgan natijalar bilan birgalikda, joylarda kuyi birlamchi bosqich o`yinlariga o`quvchi-yoshlarni ommaviy ravishda jalb qilishda kamchilik va nuxsonlar bo`ldi. Ayniksa, viloyat sport tashkilotchilarining tizim musobaqalarini asosiy maqsad va moxiyatiga etmaganligi sababli joylarda barcha xarakat «Umid nixollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport musobaqalarining final bosqichida o`rin egalashga qaratildi. Masalaga bunday bir tomondan yondashuv natijasida millionlab o`quvchi-yoshlar sport xarakatiga ommaviy ravishda jalb kilinmasdan, chetda kolib ketdi.

Bosqich musobaqalaridagi kamchiliklarning kuyidgi sabablari qayd etildi: musobaqalarda katnashadigan o`g`il-qizlar «Barchinoy» va «Alpomish» kompleks test me`yorlarini topshirmasligi, topshirganlari ham talabga javob bermasligi;

umumiy o`rta- maxsus, kasb-xunar ta`limi va oliy o`quv muassasasi darajasidagi eng asosiy, sinf va guruxlar aro bosqich musobaqalarini o`tkazish mulatining ikki oy (sentyabr-oktyabr) davomida belgilanishi; sinflar va guruhararo musobaqalar ni yil lavomila uzluksiz o`tkazmaslik va ularni monitoring qilish mexanizmi ishlab chikilmagani;

bular bitta o`quv maskanida musobaqalar nizomida belgilangan sport turlarini rivojlantirish dasturi ishlab chikilmagani;

tuman darajasida barcha BUSM, MBUSM va ROZSKlari mutaxassislaridan tashkil topgan o`quv muassasalarida sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan markaziy sport klubi shaklantirilmagani.

Mazkur tizim musobaqalarini yanalada takomilashtirish maqsadida O`zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 3 iyunda

«O`quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to`g`risida»gi 244-sonli qarorini qabul qildi. Qaroriga binoan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasiini tuzish to`grisida»gi farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yoshlarda sportga bo`lgan xavas va intilishni, jami yatimizda sog`lom turmush tarzi tamoyildarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o`quvchi va talabalarni sport mashg`ulotlariga uzluksiz jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini Kadrlar tayyorlash miliy modeli dasturiga muvofik tashkil qilish hamda uning samarali ish lashini ta`minlash buyicha vazifalar belgilandi.

Qarorda o`quvchi va talaba-yoshlarning «Umid nixollari»,«Barkamol avlod» va «Universiada»sport musobaqalarining respublika finalini xududarda o`tkazish rejasi belgilandi. Rejaga binoan, final musobaqalari 2004 yildan boshlab uch yilda bir marotaba o`tkazilib, birinchi davra 2011 yilda yakundanadi, ikkinchi davra esa 2012 yildan boshlanadi. Respublika final musobaqalarining uch yilda bir marotaba o`tkazilishi barcha bugin musobaqa bosqichlarining tartibini ushbu davrga moslashni va ularni yangidan

ishlab chiqishni talab kildi. «Umid nixollari» sport musobaqalari bugini mazkur tizimning eng asosiy bosqichi bo`lgani uchun, dastlab uning xarakat modeli tuzilmasini shakllantirishga kirishili. Uch yil davomida bosqichma-bosqich bugin musobaqalarida olti millionlan ortik o`quvchi yoshlarning uzluksiz ishtirok etishi tartibini to`zishda oldingi yillarda o`tkazilgan tizim musobaqalarining xulosalari asos sifatida olindi.

Musobaqalar tamoyillari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi xomiylik kengashining yig`ilishlarida bergan ko`rsatmalari asosida shakllantirili:

1.Mamlakat o`quvchiyoshlarining barchasini o`quv yili davomida ommaviy ravishda sport xarakatiga keltirilishi va mazkur xarakat orqali, xar bir bosqich pog`onasiga mos ravishda yukori maxoratli sportchilar etishib chikishini ta`minlanishi;

2.Tizim musobaqalarining final o`yinlarigacha o`tkazilaligan bosqich o`yinlarining bir-biriga mantiqiy boglangan bulishi; Z.Musobaqalar ning birinchi bosqich o`yinlari yoshlarni sport harakatiga keltira oladigan asos bulib, ularda etarlicha ko`nikma va biron bir sport turiga qizqish xosil bo`lishiga erishish;

4.O`quvchilarni ommaviy xarakat boskichila ko`rsatgan qobiliyati va mahoratiga karab ikkinchi, keyingi bosqichlarga yunaltirish;

5 .O`quvchi yoshlarni maktab, litstey va kolej, oliy ta`lim muassasalarila hamda undan tashqari o`tiladigan sport musobaqalariga ommaviy ravishla jalb qilinishi, sport turlari bo`yicha sinflar aro g`ururlararo belashuvlarni yil davomida uzluksiz o`tkazilishining me`yoriy asosda ta`minlanishi;

6. Engil atletika, suzish va boshqa sport turlariga barcha o`quvchilarni musobaqalar orqali uzluksiz jalb qilinishi, ular orasidan iste`dodi bolalarni saralash va sport sekstiyalariga hamda maktablariga jalb etilishi;

7. Xar bir bosqich musobaqalari o`zining Nizomi asosida o`tkazilishi, o`quvchilarning

musobaqalarda ko`rsatayotgan natijalarini jismoniy tarbiya va sport mutahassislari tomonidan monitoring qilinishi;

8.Musobaqalar mamlakat darajasida birinchi yildan boshlab kompleks ravishda, joylarda bosqich o`yinlari finalini esa, ta`tilda o`tkazilishi;

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya va xarakterli sport belashuvlarida uzluksiz qatnashishini ta'minlash orqali ularda kurashda g'alabaga intilish fazilatlarining shaklanishi;

10. Uch yil davomida bosqich musobaqalarini o'tkazish tuzilmasini belgilashda, asosan, yoshlarning ommaviy ravishda sport harakatiga qamrab olinishi. Tuzilma ichidagi o'zaro belashuvlar tartibining kompleks musobaqalar asosida belgilanishi;

11. Bosqich o'yinlarida kuchli va sport maxorati yuqori bo'lgan jamoalarning sovrinli pog'onalariga chiqishlari va xududlarning eng kuchli jamoalari bilan uchrashuvlarini tashkil etish. Bunday tartib sport bellashuvlari la malorati etarli larajala bulmagan jamoalarning kuchlilarga teng bo'lishga xarakter kilishi uchun turtki bulishi va lakamlarni musobaqalarni ob'ektiv ravishla o'tkazishlari, «tasodifiy» holatlarning cheklanishi.

2.1. «Umil nixollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalarining bosqichlarini uch yil davomida belgilangan tamoyillar asosida, tashkiliy va boshqaruv mehanizmlarini joriy kilish tartibi va modelini shakllantirishda oldingi yillarda o'tkazilgan musobaqalar ning salbiy va ijobiy natijalarini xar tomon ham chuqur taxil etib, okilona ish tutish muvaffakiyatlar omili bo'ladi.

## **II. BOB OLIMPIYA O`YINLARINING YOSHLAR TARBIYASIDA SPORT BAYRAMLARI SIFATIDA TUTGAN O`RNI**

### **1.1 Olimpiya o`yinlari tarixi**

Olimpiada uyinlari bugungi kurinishga etib kelguniga kadar juda uzok yulni bosib utgan. Yunon zaminida tashkil etilgan xar bir davlat, xar bir shaxar Olimpiya uyinlari xakida uz karashlariga ega bulgan, ular uz talkimlarini ilgari surgan. Shu bois xam, Olimpiada uyinlari xakida minglab afsonalar, kushiklar yaratilgan. Mavjud afsonalar orasida eng mashhuri Pelops xakidagisidir. Ba`zi afsonalar Olimpiada uyinlarini Zevs nomi bilan boglashadi. Ba`zilarda esa Olimpiada asoschisi sifatida Gerakl tilga olinadi. Ammo rad etib bulmaydigan ba`zi dalillar ushbu musobokalarning tashkil etilgan vaqtini xam a`nik kursatib beradi ularga kura, Olimpiada uyinlari eramizdan oldingi IX asrda tashkil etilgan. Bu davrda tinimsiz va ogir urushlar grek davlatlarning tinka-madorini kurutgan edi. Kichkina grek davlati sanalgan Elitning shoxi Efit urushlarga baxram berish maxsadida Delfaga , avliyoning maskaniga yul oladi. Delfalik avliyo esa unga kuydagicha maslaxat beradi: «Xudolarga xush keladigan uyinlarga asos sol!» Avliyoning maslaxatiga kulok solgan Efit Sparta shoxi Likurg yordamida Grestiya zaminadagi kichik podsholiklarning barchasini bir joyga tuplaydi va avliyoning maslaxatini urtaga tashlaydi. Va eramizdan oldingi 884 yilda Olimpiya togda ilk marotaba

talitlar musobakasini uyushtiradi. Aynan shu kundan boshlab, Grestiyadagi barcha kichik davlatlar 4 yilda bir marotaba kurol yarokni etishtirib, bir- biri bilan sport musobokalarida bellashishga yul oladigan bulishdi. Musobakalar dasturi esa yarim xarbiy sport turlardan tashkil etilgan edi: engil atletika, jang aravalari poygasi, nayza uloktirish va kamondan nishonga uk uzish. Olimpiada uyinlari bir vaqtning uzida diniy marosim xam bulib, uyindan boshlanishgi oldin xudolar sharaflanar, ularga atab kurbonlik uyushtirilar edi. Oradan vaqt utishi bilan Grestiyada yagona Olimpiada kalendariga amal kilina boshlandi. Musobakalar oldiniga bir kun, keyinchalik besh kun va borib, bir oy davom etadigan buldi. Bellashuvlar 4 yilda bir marotaba, bugdoy urimi va uzum terimi orasida utkazilishi odat ustiga kirgan. Kadimgi Olimpiada uyinlarga ayollar kiritlmagan. Xatto uz uglining ishtirokini kurish uchun yashirincha stadionga kirgan ayolning katil etilganligi xakida afsonalar xam bor. Goliblar esa zaytun mevasi va lavr barigidan yasalgan gulchambar bilan takdirilanishgan. Olimpiada uyinlardan song «Lauriyat» tushunchasi shakillangan va bu suz «Lavr gulchambari egasi» degan ma`noni anglatgan.

Bayram vujudga kelgan paytida diniy harakterga ega edi, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etar edi. Olimpiada musobaqalarning eng kadimgi turi bir bosqichda (qariyb 192 m) yugurishdan iborat edi. Shu uyinlardan boshlab, musobakalar dasturita ikki stadiyaga chopish, 15-olimpiada uyinlaridan boshlab esa chidamliligini sinash uchun yugurish kiritildi. 18-uyinlardan boshlab musobaka besh kurash musobakasi bilan to`ldirildi, bu musobaqa keyinchalik bayramning markaziy qismi bo`lib koldi, Bu vaqtlarda musobaqalar dasturita kurash ham kiritilgandi. Biroz keyinroq mushtlashish, qo`sh g`ildirakli aravada yurish va pankriation (mushtlashish bilan kurashning birlashuvi) kushildi.

Fuqarolik huquqlardan faqat erkin yunonlar-kuldorlar foydalana olgan. Xarbiy-quldorlik xususiyatlariga asoslanib olimpiya o`ynlariga faqat erkin bo`lib

tug`ilgan fo`qarolargina qatnashar edi. Qullar va varvarlar (boshqa yurt odamlari) ning uyinlarda qatnashish qat`iyan man etilgan.

Dastlabki vaqtlarda o`yinlarda har bir majburiyatlarini o`tayotgan katta yoshdagi yunonlarga ishtirok etardi. 37-o`yinlardan boshlab o`yinlarda bolalar qatnasha boshladilar. Bolalarning chiqishlari o`chun bayram paytlarida aloxida kun ajratilardi. O`yinlarga ellanodiklar (hakamlar sud`yalar) raxbarlik qilganlar; ular elida fukarolari orasida o`yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida (9 kishidan 18 kishigacha) saylanar edilar. Ellanodiklarning vazifasi musobaqalar joyini tayyorlashdan musobaka qatnashuvchilarni tanlashdan, musobaqalarning borishini ko`zatib borishdan va nixoyat musobakada g`olib chiqqanlarga mukofotlar berishdan iborat bo`ladi.

Asosiy mukofot-mo`qaddas zaytun daraxti novdasidan qilingan gulchambar besh kurash musobaqasidan g`olib kelgan kishiga berilgan. Kupincha navbatdagi o`yinlarga bo`lgan to`rt yillik davr ana shu g`olibning nomi bilan atalgan. Olimpiya uyinlari; eramizning 394 yilida Vizantiya imperatori feodosiy bir tomondan taqiqlandi.

Kadimda sportchilar fakatgina kizikish nuktai nazaridan turli musobakalarda ishtirok etganlar. Ular uz galabalari uchun mukofotlanishmagan. Vaqt utishi bilan bu an`ana uzgarib, golibni takdirlash odati paydo bulgan. Shu davrdan chempionat ishtirokchilariga nisbatan «atlet» suzini kullash boshlangan.

Birinchi olipiyada uyinlari miloddan avvalgi 776 yilda tashkil etilgan. Uning yugurish musobakalarida oshpaz Koromodos galaba kozangan edi. Ushanda uyinlar tarkibiga kamondan uk uzish kiritilmagan . Sababi, yunonlar bu sport turini dushmanlariga tegishli, deb xisoblashgan. Ishtirokchilar bizdagi koptokni eslatib yuboruvchi tup bilan uynaladigan sport turi buyicha xam uz kuchlarini sinovdan utkazganlar. Keyinchalik dengizchilar urtasida suzish va arkon tortish buyicha xam goliblar aniklangan.

Olimpiyada uyinlari tarixida klyuchka (xokkey uyinida: uchi kayrilgan dasta) bilan ham kilichbozlik ham bulgan. Ma`lum vaqtgacha suzish sporti musobakaga kiritilmagan. Sababi, u sport turi emas, balki hordik chikarish vositasi hisoblangan. E`tiborlisi keyinchalik uzunlikka sakrash, suv sporti turi sifatida kayd etilgan . Gap shundaki, sportchilar buning uchun suvga sakrashgan.

Mashhur olim Pifagor kadimgi Olimpiyada uyinlarida mushtlashuv (xozirgi boks ) buyicha chempion bulgan. Yana bir tanikli fizik Nils Bor futbol buyicha Daniya terma jamoasi tarkibidan darvozabon sifatida joy olgan. U xattoki Olimpiyada uyinlarida ishtirok etgan. Kadimgi olimpiya uyinlarining utkazilishi tuxtatilgandan keyin ropa –rosa bir yarim ming yildan oshik vaqt utdi.

Olimpiyada uyinlari boshlanishida sportchilar musobakada – xalol kurashishga, xakamlar esa xalol bulishga kasamiyod kilishgan bu an`ana hozirga kadar davom etmokda. 1894 yilda olimpiya uyinlar nizomi tasdiklangan bulib, unda kelib chikishi tabaka va ijtimoiy axvolidan kat`iy nazar butun dunyo sportchilari uyinlarda ishtirok eta olishlari uqtirilgan. Ushbu Xortiyani zamonaviy olimpiya uyinlari asoschisi P Kuberten ishlab chikkan 1894 yilda P Kuberten xalkaro sport kongresi Xartiyasini tasdiklagan ( yangi taxriri 1999 yil kabul kilingan). Uyin mubokalari sportning xalkaro olimpiya turlari buyicha bulib utadi. Olimpiya sport turi Xartiyaga binoan aniklanib, u eng keng tarkalgan yozgi uyinlarning erkaklar sport turi 4 kit`anning kamida 75 davlatida va ayollar uchun esa 3 kit`anning kamida 40 davlatida tarkalgan bulishi kerak. Dasturda engil atletika, kilichbozlik, ogir atletika, velosport, futbol, valeybol, basketbol, kurash, suzish, gimnastika, eshkak eshish, boks albatta kiritiladi. 1968 yilda olimpiya uyinlari tashkiliy kumitasi xok tomonidan tasdiklangan madaniy dastur tadbirlarni utkazib keladi. Bu tadbirlar san`at vositasida olimpiyadaning xalklar urtasida tinchlik va totuvlik ideallarini targib kilishga karatilgandir.

Buning natijasida utgan davr movoynida mamlakatimiz sportchilari turli xalkaro

turnirlar, jaxon va Osiyo chempionatlarida muvoffakkiyatli ishtirok etdi.

## **2.2 Olimpiya xarakati.**

Bu jamiyat taraqqiyoti bo`lib u olimpiya g`oyalari va mafkurasi tamoillariga tayanadi. Shu asosda insonlar va tashkilotlarni ularning millati, irqi va yashash joylaridan qat'iy nazar o`ziga birlashtiradi. Ularning sport, sport gimnastika va o`yinlarini o`zlarining asosiy faoliyati deb bilishlariga ko`maklashuvchi ijtimoiy faoliyatidir. Olimpiya xarakatining asosiy vazifalari quyidagicha.

-olimpiya g`oyalarining tomoillarini jaxonga yoyish:

-olimpiya sport turlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko`maklashish.

-Sportni targ`ib qilish, imkoniyat doirasida ulardan jismoniy, manaviy va estetik tarbiya foydalanishni ifodalash:

-“Olimpiya birdamligi” dasturni tarqatish (singdirish) yo`lida sharoitlar yaratish;

-Xar to`rt yilda bir marotaba olimpiya o`yinlariga tayorgarlik va uni o`tkazish.

Olimpiya o`yinlari –bu sportchi olimpiyachilarning majmui xalqaro musobaqasidir, jaxon yoshlarning buyuk (ulug`) bayramidir. O`yinlar barcha mamlakatlarning kuchli sportchilarini birlashtiradi va musobaqalarda xalol va keng huquqlik asosida qatnashishlari ta`minlayda.

Olimpiya o`yinlari barcha mamlakatlar va ularning sportchilaridagi sport maxorati, axloqiy, istetik va insonparvarlik g`oyalarini namoyon etuvchi ko`zgu sifatida xazmat qilmoqda.

XOK tarkibida 1950-yilda milliy olimpiya qo`mitalarining soni 68 ta bo`lsa 1997-yilda yilda 1997 va 2000-yilga kelib esa ularning soni 200 dan oshib ketdi.

Bu olimpiya xarakatining baynalmilallik yo`lidagi ijobiy faoliyatlaridan biridir.

Olimpiya o`yinlari bu sport maxorati maktabidir. Olimpiya o`yinlari ta`lim-

tarbiya tizimidagi shaxsning barkamollikka erishuvi yo'lidagi barcha faoliyatlarini takomillashtirishga bevosita yordam beradi.

Olimpiya o'yinlari xalqaro olimpiya xarakatining eng yuqori choqqisidir.

qadimgi sportchilar faqatgina qiziqish nuqtai nazardan turli musobaqalarda ishtirok etganlar. Ular o'z g'alabalari uchun mukofotlanishmagan. Vaqt o'tishi bilan bu an'ana o'zgarib g'olibni taqsimlash odati paydo bo'lgan. Shu davrda chempionat ishtirokchilariga nisbatan atlet so'zini qo'llash boshlangan. Birinchi Olimpiyada o'yinlari miloddan avvalgi 776-yilda tashkil etilgan. Uning yugurish musobaqalarida oshpaz Koromodos g'alaba qozongan ekan.

O'shanda o'yinlar tarkibiga o'q uzish kiritilmagan. Sababi yunonlar bu sport turini dushmanlarga tegishli deb xisoblaganlar. Ishtirokchilar bizdagi koptokni eslatib yuboruvchi to'p bilan aylanuvchi sport to'pi bo'yicha xam o'z kuchlarini sinovdan o'tkazganlar. Keyinchalik dengizchilar suzish va arqon tortish bo'yicha xam g'oliblar aniqlangan. Olimpiyada o'yinlari tarixida klyuchka xokkey o'yinida: uchi qayrilgan dasta bilan ham qilichbozlik xam bo'lgan. Buni qarangi ma'lum vaqtlargacha suzish sporti musobaqalarga kiritilmagan. Sababi u sport turi emas balki xordiq chiqarish vositasi xisoblangan. E'tiborlisi keyinchalik uzunlikka sakrash suv sporti sport turi sifatida qayd etilgan. Gap shundagi sportchilar buning uchun suvga sakrashgan.

Mashhur olim Pifagor qadimgi Olimpiyada o'yinlariga mushtlashuv (hozirgi boks) bo'yicha champion bo'lgan. Yana bir taniqli fizik Nils Bor futbol bo'yicha Daniya terma jamoasi tarkibidan darvozabon sifatida joy olgan. U xattoki Olimpiyada o'yinlarida ishtirok etgan.

### **2.3 O'zbekiston Olimpia Akademiyasi**

O'zbekiston Olimpiya Akademiyasi O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasiga bevosita yordam beruvchi Olimpiya oyalarini tarib qiluvchi va olimpiyada o'yinlarining qadriyati tamoyillarini o'rganuvchi va ommalashtiruvchi

ko'ngilli jamoat tashkiloti xisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, Xalqaro Olimpiya Akademiyasi 1961 yilda tuzilgan. U Gretsiyaning Olimp shahrida joylashgan va 170 dan ortiq mamlakatlarda uning tarmoqlarda, ya'ni Milliy Olimpiya akademiyalari tashkil etilgan. Xalqaro Olimp Akademiyasi asosiy vazifasi Olimpiya xarakati, jismoniy tarbiya va sport nazariyasini o'rganish hamda tarib qilishdan iborat. Uning faoliyati Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan boshqarilib, moliyaviy ta'minoti esa Gretsiya Milliy Olimpiya qo'mitasi zimmasidadir. Xalqaro Olimpiya Akademiyasi har yili bir haftalik sessiya tashkil etadi va unda falsafiy-oyaviy muammolarga baishlangan ma'ruzalar eshitilib, seminarlar o'tkazadi. Ularning asosiy moxiyati Olimpiya xarakati tarixi, sport Mashulotlari hamda jismoniy tarbiya va sportning uslubiy masalalari bayonidan iborat bo'ladi. Bu anjumanlarga Milliy Olimpiya qo'mitalari taniqli olimlar, murabbiylar, soha vakillari xatto talabalar, aspirantlar va sportchilar ishtirok etishadilar.

1993 yil 18 aprelda O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Olimpiya akademiyasi faoliyatini uning prezidenti ijrokor direktori tomonidan boshqariladi. 1994 yilda Olimp shahrida o'tkazilgan Xalqaro Olimpiya Akademiyasi sessiyasida O'zbekiston Olimpiya Akademiyasi vakillari ilk bor ishtirok etishdi va keying yillarda ham qatnashib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya akademiyasi ijrokumi Nizomga muvofiq 12 kishi, ya'ni etuk olimlar, o'qituvchilar, murabbiylar, olimpiya xarakatining namoyondalari jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadilar. O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi o'z faoliyatini asosan, olimpiya oyalari, Olimpiya xarakati, Olimpiya o'yinlarini ommalashtirishga qaratilgan 1996 yil Olimpiya ta'limi tizimining tashkiliy va ilmiy-uslubiy asoslarini yaratishning xal qiluvchi jarayonini amalga oshirildi, ya'ni turli xududlarda Xalqaro Olimpiya

Akademiyasi bilan o'zaro aloqalar ta'minlanadi.

Xalqaro Olimpiya Akademiyasi bilan o'zaro aloqalar ta'minlanadi.

1994 yildan Respublikada Olimpiya xarakatiga baishlangan doimiy ilmiy-ommaviy konferensiya o'tkazilib turiladi va o'quv qo'llanmalar chiqmoqda. Xolkfo Olimpiya akademiyasi aytganimizdek asosan olimpiya oyalarini tarib qiladi. Bunda president, 3 ta vitse-prezident va a'zolar bo'ladi. Prezident 8 yilga saylanadi.

Xalqaro olimpiya qo'mitasi a'zolarini saylash muddati belgilanmaydi. Lekin u 72 yoshga kirs, a'zolikdan chiqib ketadi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining moliyaviy manbai asosan MOK a'zolidan, yani xar bir a'zo AQSH dollari xisobidan badallar to'laydi.

Olimpiya o'yinlarining television ko'rsatuvlaridan yiilgan pullarning bir qismi, XOK qo'mitasi byulleteniga a'zoldan bir qismini tashkil etadi. O o'yinlari jarayonidagi barcha xarajatlarni o'yinni tashkil qilgan mamlakat ko'taradi. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun mamlakatda shaharlar tashkiliy qo'mita tuzadi va u barcha ishlar uchun XOKSI, Xalqaro sport federatsiyalari va MOKSI oldida to'liq javob beradi. XOK 26 ta Xalqaro sport federatsiyalarini tan oladi.

Mavsum bir, sport turini Xalqaro tan olish uchun kamida 3 ta qit'alardagi 40 ta mamlakatida erkaklar va 2 ta qit'aning 25 ta mamlakatida ayollar tomonidan qo'llanishi sharti. Yozgi Olimpiya o'yinlari dasturi kam deganda 15 ta sport turi bo'yicha o'tkazilishi kerak. Xozirgi yozgi Olimpiya o'yinlari dasturiga quyidagi sport turlari kiritilgan:

- |                 |                      |
|-----------------|----------------------|
| 1. E.Atlatika   | 18. Softbol          |
| 2. Oir atletika | 19. Suzish           |
| 3. Boks         | 20. Plyaj Voleybol   |
| 4. Basketbol    | 21. Suvga sakrash    |
| 5. Futbol       | 22. Sinxronga suzish |

- |                       |                           |
|-----------------------|---------------------------|
| 6. Voleybol           | 23. Nishonga o'q otish    |
| 7. Gongbal            | 24. Miltiqdan o'q otish   |
| 8. Ot sporti          | 25. Ot sporti (konkurs)   |
| 9. Suv palasi         | 26. Taekvando             |
| 10. Yunon Rim kurashi | 27. Stol tennisi          |
| 11. Ozyu-do           | 28. Komondan o'q otish    |
| 12. Triatron          | 29. Xokkey gest o'tkazish |
| 13. Badiiy gimnastika | 30. Velosport-shosse      |
| 14. Sport gimnastika  | 31. Akademik eshkak       |
| 15. Erkin kurash      | 32. Rextovorsiya          |
| 16. Boydorka va KANOE | 33. Zamonaviy besh kurash |
| Eshkak eshish         | 34. Elkanli sport         |
| 17. Tennes            | 35. Bouling               |
|                       | 36. Tramplin              |

Sportchilarning O.ulari bilan boliq xarajatlarini MOK tufayli. Buarga (yotish joyi, ovqatlanish translit va xokozolar kiradi).

**Xalqaro olimpiada qo'mitasining Komissiyalari.**

Xalqaro olimpiada akademiyasi ishlari bo'yicha doimiy aralash komissiyasi	Sportchilarni o'yinlarga qo'yish bo'yicha doimiy komissiya	Doimiy moddiy komissiya
Qoidalarni taxrir qilish bo'yicha doimiy komissiya	Matbuot bo'yicha doimiy aralash komissiyasi	Doimiy huquqiy komissiya
Doimiy aralash tibbiy komissiyasi	Doimiy moliyaviy komissiya	Doimiy mukofotlash komissiya

Olimpia dasturi bo'yicha doimiy aralash komissiya	Nashr qilish bo'yicha aralash komissiya	
Olimpiya xaritasini nashr qilishni ko'rib chiqish bo'yicha komissiya		

## 2.4 Xalqaro olimpiya va O'zbekiston olimpiya "shon shuxrati" muzeylari

### Xalkaro olimpiya muzeyi

Ammo hech mubolag'asiz tabiati jannatmakon bu yurtga qadam ranjida qiladiganlar, ayniqsa, ular sport ixlosmandlari bo'lsa, Lozannadagi Olimpiya muzeyini ziyorat qilmasdan ketmaydi.

Siz Jenevadagi xalqaro aeroportga kelib tushsangiz, bu ulkan majmuaga uygun tutashtirilgan temir yo'l vokzalidan atigi 40 daqiqada Lozannaga etib kelasiz. Poezd shu qadar osuda harakat qiladiki, siz vagondami yoki sokin Jeneva ko'lida kemada suzib ketyapsizmi, darrov anglab olishingiz qiyin. Faqat derazalardan lip-lip o'tayotgan serho-sil dala va boglar ko'rinishlari tezlik katta (keyin ma'lum bo'lishicha, soatiga 200 kilometrdan ham ildamroq) ekanligidan dalolat berib turadi.

Belgilangan aniq muddatdat bir daqiqa kech ham, vaqtli ham emas shahar vokzaliga qadam qo'yasiz. xar-hol nigohingizni bino peshtoqidagi "Lozanna - Olimpiada poytaxti" degan yozuv o'ziga tortadi.

Ha, bu jahon e'tirofi.Xalkaro Olimpiya Qo'mitasi qarorgohi xuddi shu shaharda joylashgan. XOQ o'ziga qarorgox sifatida Lozannani tanlashining ham tarihi bor. Birinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda franstuz Per de

Kuberten o`z vatanini emas, balki betaraf Shveystariyani, bu mamlakatning eng go`zal shaharlaridan biri Lozannani XOQ Ijroiya Qo`mitasi qarorgohi uchun ma`qul ko`rdi.

Zamonaviy Olimpiya o`yinlari boshlangan 1896 yildan so`ng o`tgan salkam bir asr davomida XOQ Ijroiya Qo`mitasida Olimpiadaga taalluqli juda ko`p hujjatlar, buyumlar, sovg`alar to`planib qoldi. O`sha vaqtda Xalkaro Olimpiya Qo`mitasi prezidenti bo`lgan Xuan Antonio Samaranch ularni aloxida muzeyda saqlash, bu tarixiy xujjatlar, osori-atiqalar bilan xammani tanishtirish zaruratini tushunib etdi. Shu tarika uning tashabbusi bilan Lozannada Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Muzey XOQ Ijroiya Qo`mitasining bu erdagi karorgohiga joylashtirildi. Shunisi diqqatga sazovorki, X.A.Samaranch 1996 yili Toshkentda xam Olimpiya shon-shuxrati muzeyi tantanshti ochilishida ishtirok etgan.

Lozannadagi Olimpiya muzeyi yam-yashil Olimpiya bogi hududida, ko`l soxilida, tepalikka joylashgan. Favvora otilib turgan sohildan asta-sekin yuqoriga ko`tarilar ekansiz, ni-nabargli daraxtlar, butalar, gul va maysalardan san`at asaridek latofatli manzara yaratgan landshaft dizaynchilariga qayta-qayta tasannolar aytasiz. Haqiqatdan ham bu tabiat go`zalligini so`z bilan ta`riflashga til ojiz, uni faqat ko`rish, zavqlanish kerak. Tepalikdagi muzey binosiga etaklovchi aylanma yo`laklar yonida balandlik va uzunlikka sakrash bo`yicha jahon rekordlari masofasida o`rnatilgan turli ramziy kurilmalar xam, Millim Olimpiya ko`mitalari, dunyoga mashhur ijodkorlar hadya qilgan juda ta`sirchan haykal va kompozistiyalar ham diqqatingizni o`ziga tortadi.

Muzey Xalqaro Olimpiya Qo`mitasining tarkibiy qismi, uning departamenti hisoblanadi. Bu erda Olimpiya harakati, *ko`xna* Yunonistonda o`tkazilgan zamonaviy Olimpiya o`yinlaridan hozirgi davrgacha taalluqli bo`lgan xujjatlar, kino, video, foto materiallar, ayolar, tangalar, pochta markalari, adabiyotlar, tasviriy san`at, xaykaltaroshlik asarlari jamlangan. Bu maskan

chinakam ulkan xazina ekanligidan muzeydagi eksponatlarning o`zi 70 mingdan ortiq, jami 20 ming soatdan ziyod vaqtni egallaydigan kino va video materiallar zaxirasi dalolat berib turibdi. Muzeyning doimiy ekspozitsiyalari ko`rgazmasi Olimpiya o`yinlarining tug`ilishidan boshlanadi.

Bundan 3000 yil muqaddam qadimiy Olimp shahriga olib kelingan, Alfey daryosiga tutash Kronos tog` yon bag`irlarida yoqilgan Olimpiada mash`alasi muzeyning eng noyob eksponatlaridan biri hisoblanadi. Ko`rgazma zalida 1896 yilda Afinada o`tkazilgan birinchi zamonaviy Olimpiada o`yinlaridan 2004 yilgi jahon sportining eng katta bayrami tantanapi ochilishigacha bo`lgan barcha mashalalar asl nusxalari namoyish etiladi.

Yana bir zalda Xalkaro Olimpiada Qo`mitasi prezidentlari faoliyati aks etgan. Bunda Olimpiya o`yinlarini tiklash, olimpiya harakatini rivojlantirishga eng ko`p hissa ko`shgan, 28 yil davomida XOQ prezidenti bo`lgan Per de Kuberten faoliyatiga keng o`rin berilganligi tabiiydir. Bevosita u ishlab chiqqan Olimpiya xartiyasi, ramzi, bayrog`i, madhiyasi, sportchilar, ishtirokchilar va hakamlarning qasamyodi eksponatlar to`ridan o`rin olgan. Ko`rgazmada Xalkaro Olimpiya qo`mitasining sobiq prezidentlari - yunonistonlik Demetrius Vikela, belgiyalik graf Anri de Baye-Latur, shveystariyalik Zigfrid Edstrem, AQShlik Zveri Brendej, irlandiyalik Maykl Killanin, ispaniyalik Xuan Antonio Samaranchning xizmatlariga ham munosib baho berilgan.

Shundan so`ng muzeyga tashrif buyurganlar navbatdagi yozgi yoki kishki Olimpiadani o`tkazish sharafiga ega bo`ladigan shaharni tanlash tartib-qoidalari bilan tanishish imkoniga ega bo`ladilar. Bu ko`p bosqichlik, anchagina murakkab jarayon ekanligi eksponatlarda o`z aksini topgan. Chunonchi, Olimpiada mezboni baxtiga muyassar bo`lish istagini bildirganlar navbatdagi o`yinlar boshlanishidan 9 yil mukaddam HOQga rasmiy xujjatlarni o`rnatilgan tartibda takdim etishlari lozim bo`ladi. So`ng har yili bu nom-zodlar imkoniyatlari o`rganib boriladi va Olimpiada

o`yinlari boshlanishidan 6 yil avval mezbon shahar nomzodi tasdiklanadi.

O`z vaqtida Olimpiada mezbonlarini tanlashda ba`zi XOQ a`zolarining qing`ir ishlari fosh etilganidan so`ng bu masalada oshkoralikka alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2012 yilgi Olimpiadani qabul qilish uchun da`vogarlik haqida juda batafsil ma`lumotlar berilgan. Muzei eksponatlarida Xalqaro Olimpiada Kunitasining daromad va xarajatlari oxirgi tiyinigacha aniq hisob-kitoblari bilan barcha qizikuvchilar e`tiboriga xavola qilingan. Muzeining ikkinchi qavatidagi ikki zal bevosita yozgi va qishki Olimpiada o`yinlariga ajratilgan. Ularda bu o`yinlarda sportchilar erishgan eng buyuk natijalar, sport anjomlari va kiyimlari, boshqa ko`pdan-ko`p ashyolar namoyishga qo`yilgan.

Shu o`rinda Lozannadagi Olimpiya muzei axborot texnologiyalarining eng so`nggi yutuklari asosida jihozlanganligini alohida ta`kidlash lozim. Ulkan monitorlarda Olimpiada o`yinlarining tantanali ochilishi va yopilishi, musobaqalarning hayajonli onlari jonlanadi. Muzei chiptasi bilan (u arzon emas: muzeining barcha zallarini tomosha qilish uchun AQSh dollari hisobida 12, bitta ko`rgazma zalini tomosha qilish uchun 6 dollar to`lanadi) har qaysisi 6 daqiqa davom etadigan 3 ta filmni alohida kabinada ingliz, fransuz, nemis, yapon tillaridan birida tomosha qilasiz. Videotekada ana shunday yana 500 ta filmdan xohlaganingizni qo`shimcha haq to`lib tomosha qilishingiz mumkin.

Bundan tashqari, tomoshabin o`ziga bevosita voqealar ichida ekanligi taassurotini beradigan uch o`lchamli filmlarni ko`rishi, interfaol tuzilma orqali Olimpiada, uning katnashchilari haqida boshqa qiziktirgan savollariga bir zumda javob olish imkoniyatiga ham ega.

Arzon turmaydigan bu eng zamonaviy asbob-uskunalar "Rapazoshs" firmasi tomonidan muzeiga hadya etilgan. Lozanna muzeining bunday homiylari orasida jahonning juda ko`p mashhur kompaniya va firmalari bor. Ularning nomlari muzeiga kiraverishda kayd etilgan.

Bu erga tashrif buyuruvchilarda muzeyning Olimpiadaga bag`ishlab zarb etilgan tangalar va chiqarilgan pochta markalari ekspozitsiyalari ham katta qiziqish uyg`otadi. Umuman, muzeyning ushbu mavzudagi numizmatika va filateliya kolleksiyalari dunyoda eng mukammal va noyob hisoblanadi.

Olimpiya muzeyining ikkita zali muvaqqat ko`rgazmalarga ajratilgan. Shu kunlarda bu ikki zadda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalkaro Olimpiya Qo`mitasi shafeligida "Sport manbalarini izlab" ko`rgazmasi namoyish etilmoqda. Ushbu ko`rgazmaning tantanali ochilish marosimida so`zga chiqqan Xalqaro Olimpiya Qo`mitasi Prezidenti Jak Rog-ge "Sport manbalarini izlab" uchun noyob eksponatlar tayyorlab jo`natgan O`zbekiston davlati, Xalkaro Kurash assostiastiyasiga samimiy minnatdorchiligini izhor etdi.

- Ushbu ko`rgazmani tashkil etish uchun bir yildan ko`proq mudlat ichida Milliy Olimpiya ko`mitalari, xalqaro sport federatsiyalari, ilmiy muassasalar bilan izlanishlar olib bordik, - deydi Lozanna olimpiya muzeyi direktori Fransiz Gebet. Biz 200 ga yaqin davlatning bir necha ming milliy xalq o`yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari uchun chinakamiga tag zamin bo`la oladigan 10 tasini ko`rgazma uchun tanlab oldik. Yaponiyaning sumo, Xitoyning ushbu, Mo`g`ulistonning madam, Afrika xalklarining milliy o`yinlari qadimiy, ildizlari eramizdan avvalgi asrlarga borib kadaladigan o`zbek kurashining o`ta qiska muddat ichida jaxrn sport maydonini dadil zabt ettanligi hayratga soldi. Axir atigi etti yil ichida o`zbek kurashi bo`yicha o`z milliy federatsiyalariga ega barcha kitalardagi mamlakatlar soni 73 taga etganligi hayratlantirmaydimi? Bizning kurashning kelajagi porloq ekanligiga ishonchimiz komil.

Yana shuni alohida takidlash lozimki, muzey muvaqqat ko`rgazmalari uchun odatda bitta zal ajratilar, ularni namoyish etish muddati yarim yildan oshmas edi. "Sport manbalarini izlab"ga esa ikkita eng katta eksponatlari 720 kvadrat metrni

egallagan zal ajratib berildi. Ushbu ko`rgazma bir yil namoyish etilishi belgilab qo`yilgan. Ya`ni, uni turli qit`alardagi o`n minglab sport ixlosmandlari tomosha qiladilar.

"Sport manbalarini izlab" muvaqqat ko`rgazmasi ochilgan kundan boshlab, muzey ziyoratchilari oqimi sezilarli darajada ortdi. Yapon sayyohlari, nemis faxriylari, ser-takalluf fransuzlar, sho`x-shodon lozannalik ilmu toliblar Nurotada tog tizmalarining Sarmishsoy qoyatoshlariga o`yilgan pahlavonlar bellashuvlarini, davlatimiz bayrog`iga qiyos rangdagi kurashchilar yaxtaklarini kizikib tomosha kiladilar monitorlar orqali kurash bo`yicha jahon birinchiliklari, xalkaro musobaqalar lavhalarini ko`radilar...

Lozannadagi Olimpiya muzeyini ayni vaqtda katta ilmiy, o`kuv ishlab chiqarish markazi ham deyish mumkin. Olimpiya harakati masalalari bo`yicha tadqiqot olib borayotganlar muzeyning boy kutubxonasi, kompyuterlardagi ma`lumotlar bankidan bepul foydalanishlari mumkin. Bu erda nafaqat Olimpiada, balki qadimiy Yunoniston tarixi, madaniyati bo`yicha ochiq darslar o`tkazish odatiy tus olgan. 180 kishi mehnat qiladigan muzeyning noshirchilik bo`limi bolalar uchun olimpiya harakatiga oid qiziqarli rangli kitoblar chikaradi. Shu bilan birga o`kuvchilar uchun ekskursiyalar, ochiq darslar o`tkazish yuzasidan uslubiy ko`llanmalar yaratiladi.

Muzeyning g`oyat ulkan kinovideo va fototekalaridan foydalanilgan holda turli mavzularda filmlar montaj kilinadi, albomlar chop etiladi. Sotish uchun EUO, SB disklar ishlab chiqarish ham yo`lga qo`yilgan.

- Jahonda olimpiya harakatoga bag`ishlangan beshta muzey bor, - deydi Lozanna Olimpiya muzeyi muzeyshunoslik xizmati raxbari Frederiko Jamoli xonim. - Toshkentdagi Olim piya shon-shuxrati muzeyi ular orasida alohida nufuzga ega. XOQning sobiq Prezidenti Xuan Antonio Samaranch xam bu muzeyga juda yuqori baho berganligidan xabardormiz.

### **O`zbekiston olimpiya «Shon-shuhrati » muzeyi.**

Xalqaro olimpiya qo`mitasi qoshidagi Lozanno Olimpiya muzeyidan keyin 2 o`rinda turadi, «Olimpiya shon-shuhrati » muzeyi 1996 yil 1 sentyabr mustaqillik bayramimizga to`yona tarzda xalqimizga sovg`a bo`ldi. Muzey ochilishiga. xalqaro olimpiya qo`mitasi prezidenti Xuan Antonio Samaranch xamda xurmatli prezidentimiz I.A.Karimov ishtirokida tantanali ravishda ochildi. Bu muzeyda g`olib sportchilarimizni taqdirlash tadbirlari, majlis va taqdimot marosimlari o`tkazildi.

Prezidentimizga turli xalqaro sport uyushmalari, Olimpiya qo`mitalari rahbarlari kuboklari ordenlari, estalik va sovg`alar berilgan timsollari mujassam etilgan. XOQ qo`mitasi sobiq prezidenti Xuan Antonio Samaranch taqdirlangan, Olimpiya «Oltin ordeni» g ATRTOUR direktori Mark Mayls sovg`a qilgan jozibador billur raketka, xalqaro engil atletika «FILA» qo`mitasi prezidenti Mishl Dyuson 1- oltin marjonni Osiyo Olimpiya qo`mitasi Prezidenti Shayx Axmad A Sabox oltin ordeni bilan taqdirlangan mukofotlari Milliy kurash bo`yicha jahon birinchiligi estalik kubogi, Futbol bo`yicha «Mustaqillik» xalqaro turneri sovrini va Gollandiyaning «VITES» futbol klubining paxtakorga sovg`a etgan go`zal estalik kubogi, Xorazmlik xunarmandlar to`qishgan «Paxlavon Maxmud» gilam portreti xam eksponatdan joy olganligidan guvohi bo`lasiz.

«Olimpiya shon - shuhrati » muzeyi chin ma`noda shon - shuhrati mizni o`zida jamlangan muzey xurmatli prezidentimiz aytganidek «Hech bir narsa sport kabi tezda mashhur qila olmaydi». Sportchilarimiz qancha yuksak cho`qqilarga ko`tarilayversa muzeyimiz eksponentlari medal. kuboglarga shunchalik boyib boraveradi. Muzeyda video bo`limi bo`lib, yurtimizdagi xalqaro musobaqalarni sportchilarimizni aeroportdan kutib olish onlarini video kasetalarga yozib oladi va so`ralgan mijozlaraga qo`yib beriladi. Uzbekiston «Olimpiya shon-shuhrati » muzeyi olimpiya o`yinlari vatani Grestiya davlati bilan aloqa o`rnatilgan. Afina shahridan 350 km uzunlikda joylashgan qadimgi olimpiya o`yinlari bo`lib o`tgan

qishloqda biznikiga o`xshash «Olimpiya» nomli muzey bor. XOQ qoshidagi Lazanna «Olimpiya» muzeyi bilan hamkorlik qiladi, Sport tinchlik elchisi deb bekorga aytilmasa kerak. Sport millat, din, irq dam tanlamaydi. Sportchi chempionlarimiz R.Rizqiev, S. Ro`ziev, L.Cheryazova, A.Grigoryan, T.Muhammadiev, M.Abdullaev, R.Chagaev, K.Taganboev, A. Bogdasarov, A.Tangriev, R.Qosimjonovlar kabi sportchilarimiz vatanga sevgisi tuyg`usi cheksizdir. «Olimpiya shon - shuhrati » muzeyi direktori Bahodir Rajapovning aytishicha bu sportchilar va yangi chiqib kelayotgan yosh sportchilar muzeyimiz xusniga xusn qo`shadi. Qisqasi «Olimpiya shon - shuhrati » muzeyiga kelganlar olam-olam ta`surot bilan chiqib ketadi. Biz ham kelajakda muzey atrofida mashhur chempion sportchilarimiz byustlarini va haykallarini ko`ramiz degan umiddadir. Muzey mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarga nogironlarga va fahriylarga bepul xizmat qiladi.

Xullas muzey nodir eksponentlari tarixiy xayajonli video kassetalarda siz ham bahraman bo`lishingizni tilab qolamiz. Bu muzey osiyo qit`asining birinchi Olimpiya muzeyi hisoblanadi. Bu erda O`zbekiston sportiga oid narsalar yig`iladi va ular eksponentdan joy oladi. Lozanna Olimpiya muzeyi

Sport olamining targ`ibot tashfiqotida muzeyning ham roli beqiyos. Shundan biri Lozannadagi Olimpiya muzeyidir. 1993 y. 23 iyunda tashkil etilgan. Ushbu ilmiy xalqaro olimpiya qo`mitaning 7-prezidenti X.A.Samaranch rahbarligida paydo bo`ldi. XOQ shtab kvartirasi yonida joylashgan ushbu muzey 1995 yil Evropa keng omma nazarida yorqin ifoda kashf etgani uchun yilning eng yaxshi muzeyi sovrinini qo`lga kiritdi. Lozonna muzeyi olimpiya harakatining targ`ibot va tashfiqotlarini o`tgan va xozirgi Olimpiya harakatlarini namoyon qilib turadi. Muzeyda mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo`lib, badiiy ko`rgazmalar joy olgan. Ayniqsa sa`natga ko`proq etibor berilgan. Shu o`rinda Lozonna haqidagi sharx. Shvestariyaning janubii g`arbiy qismdagi shahar

vakolatining ma`muriy markazi. Axolisi 114,2 ming kishi (1998). Transport yo`llari tuguni. Jeneva ko`li sohili xalqaro ahamiyatga ega sport. Aeroport bor. Aniq mashinasozlik, metallurgiya, poligraf, to`qimachilik, sanoatlari rivojlangan. Universitet (1537) oliy texnika maktabi , muzeylari bor. Xalqaro olimpiya qo`mitasining qarorgohi. Xalqaro turizm markazi. Lozanada xalqaro kongres va konfrensiyalar o`tkaziladi. Shaharga rimliklar manzilgohi sifatida asos solingan. Urta asrlarda episko^ shahri bo`lgan. Lozanada memoriyyodgorliklar Nord-dam sobori gotika cherkovi, ratusha va boshqalar saqlangan. Xozirda zamon binolaridan ma`muriy binolar bor.

## **XULOSA**

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining turli qatlamlarini qamrab olgan samarali milliy tizim vujudga kelgani va u hozirdanoq yahshi natijalar berayotgani nafaqat o`zimizning, balki horijiy mutahassislar tomondan ham tan olinib, e`tirof etilayotgani mazkur sohadagi ishlarning naqadar puxta uylab, o`zoqni ko`zlab amalga oshirilganini ko`rsatadi.

Ta`kidlash joizki, bunday oliyjanob ishlar o`tish lavrining nihoyatda murakkab bosqichida amalga oshirila boshlangani bilan yanada ahamiyatlidir. Sobik, ittifoq, hududidagi boshqa yosh mustakil davlatlar ikdisodiy muammolar girdobiga kirib, siyosiy mojarolarga ko`milib qolgan bir davrda bizning yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy ishlar jamiyat hayotidagi tub o`zgarishlar bilan hamohang tarzda amalga oshirildi.

Buning zamirida yurtboshimizning «Buyuk davlatni fakat sog`lom millat, sog`lom avlodgina ko`ra oladi» teran g`oyalari mujassam. Soddaroq kilib aytganda, yurtimizda sog`lom avlodni voyaga etkazish vazifasiga kudratli davlatni shakllantirish ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish,

hukuqiy fukarolik jamiyat barpo etish jarayonining muhim sharti sifatida qaralmoqda.

. O`tgani tarixan qisqa davr-mustaqillik yillarida borilayotgan ishlarning keng quloch yoyishi va salmoqli natijalar berishining boisi ham shunda. Muhimi shundaki, davlatimiz rahbari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish nafaqat bolalar va o`smirlarni, balki butun halqni ommaviy sport harakatiga jalb qila oladigan o`ziga xos samarali tizimni shakllantirish, sog`lom va barkamol avlodni voyaga etkazish ishlarining uzviy va ajralmas qismi deb bildi, bu sohadagi tadbirlarni o`zaro uyg`un va mushtarak tarzda tashkil etish taklifini berdi

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li». Toshkent. «O`zbekiston» 1992 y.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» Toshkent. «Sharq» 1999.
3. Karimov I.A. «Sog`lom avlod bizning kelajagimiz» Toshkent. Ibn Sino 2002 y.
4. O`zbekiston Respublikasining Prezidentining «O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish to`g`risida»gi Qonuni. 2002 y. 24 oktyabr.
5. «Qadrlash tayyorlash milliy dasturi to`g`risida » O`zbekiston Respublikasi Qonuni 1997 y.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog`lom avlod uchun» ordenini ta`sis Qilish to`g`risida gi farmoni, 1993y 4-mart.
7. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma`mkamasining «O`zbek milliy

- kurashini rivojlantirish to`g`risida» gi Qarori, 1998 y.
8. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma`jmasining O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi 271 sonli Qarori 1999 yil 27 may.
  9. A.K.Akromov. O`zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O`quv qo`llanma. T. O`z. DJTI nashriyoti. 1997 y.
  10. A.Q.Atoev .Kurash , darslik T. O`Qituvchi. 1984.
  11. Nurmuhammedov K.I. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Toshkent, 1991
  12. K.D.Yarashev. Jismoniy tarbiya va sportni boshQarish T. IbnSino nashriyoti 2002 yil
  13. Botirov B.E, Begimqulov O.T Olimpizm Toshkent 2012y
  14. Axmatov M.S. Uzluksiz ta`lim tizimida ommaviy sport-sog`lomlashtirish ishlarini samarali boshQarish. Toshkent 2005

Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy madaniyat fakulteti  
IV kurs talabasi Murodov Sirojiddinning  
“Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida  
tutgan o`rni” mavzusida bajargan bitiruv  
malakaviy ishiga ilmiy rahbarining

## **XULOSASI**

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni uning gullab yashnashi va rivojlanishi ko`p jihatdan o`sib kelayotgan avlodning sog`lom bo`lishiga bog`liq. Bu esa o`z navbatida Vatanimizning kelajagi farzandlarimizning jismoniy aqliy va ma`naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Talaba – tadqiqotchi ishni, yozishda ko`pgina manbalardan, ustoz

murabbiylar ish tajribalarini ko`rib, kuzatib, o`rganish orqali olgan ma`lumotlardan foydalangan. Ishning “Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida tutgan o`rni” bobida har bir sport bayramlarini yoshlarimizning onggiga ta`sirini ko`rsatishga harakat qilgan .

Muallif talaba yoshlar o`rtasida sport bayramlarining turlarini, ularni tahlil qilib o`z xulosalari bilan har tomonlama o`rgangan. Ishning maqsadi asosida qo`yilgan vazifalari keng ko`lamda ilmiy nazariy maxsus adabiyotlardan foydalanib yoritib berilgan.

Malakaviy ishi kirish, ikki bob, sakkiz bo`lim, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, 56 varaq tashkil qiladi. Bitiruv malakaviy ishi qo`yilgan talablar darajasida bo`lib ishni himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Ilmiy rahbar:**

**Botirov B.E**

Jismoniy madaniyat fakulteti  
IV kurs talabasi Murodov Sirojiddinning  
“Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida  
tutgan o`rni” mavzusida bajargan bitiruv  
malakaviy ishiga

## **T A Q R I Z**

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan tamoyillarning bosh maqsadi jismoniy salohiyatni ma`naviy etuklikka erishgan va barkamol avlodni etishtirishdan iborat.

Mazkur ishda sport inshootlarini qurish, ixtisosli kadrlar tayyorlash, ommaviy sog`lomlashtiruvchi va sport ishlarini rejalashtirishni tashkil qilish, aholi

o`rtasida jismoniy tarbiya va sport bayramlarini o`tkazish hamda sayohatni targ`ibot ishlari to`g`risida ko`plab manbalardan foydalangan

Murodov Sirojiddin o`z ishida Sport bayramlari yoshlarni jismoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarning sportga qiziqishlarini, yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam to`ldirib borishga qaratilgan bo`lib Olimpiya o`yinlarining o`smirlar tarbiyasiga ta`siri xaqida kerakli ma`lumotlarni keltirgan va sport bayramlarida BO`SMning o`rnini keng yoritib bergan

Tadqiqot ishi kirish, ikkita bob, sakkizta bo`lim, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, muallifning tadqiqot ishi bitiruv malakaviy ish talab darajasiga to`liq javob beradi.

Shuning uchun ham uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Taqrizchi:**

**Daminov I. A**

Jismoniy madaniyat fakulteti  
IV kurs talabasi Murodov Sirojiddinning  
“Xalqaro sport bayramlari, yoshlar tarbiyasida  
tutgan o`rni” mavzusida bajargan bitiruv  
malakaviy ishiga

## **T A Q R I Z**

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni uning gullab yashnashi va rivojlanishi ko`p jihatdan o`sib kelayotgan avlodning sog`lom bo`lishiga bog`liq. Bu esa o`z navbatida Vatanimizning kelajagi farzandlarimizning jismoniy aqliy va ma`naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Muallif ishida sport mutaxassis kadrlar tayyorlash, ommaviy sog`lomlashtiruvchi va sport bayramlarini tashkil qilish, aholi o`rtasida jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish hamda sayohatni targ`ibot qilishda qo`plab manbalardan foydalangan

Murodov Sirojiddin o`z ishida Sport bayramlari yoshlarini olimpiya sport turlaridan joy olgan sport turlariga qiziqishlarini, yangi iqtidorli yoshlar bilan muntazam to`ldirib borishga qaratilgan bo`lib Olimpiya o`yinlarining yoshlar tarbiyasiga ta`siri haqida kerakli ma`lumotlarni keltirib, keng yoritib bergan

Mavzu ilmiy rahbar tomonidan to`g`ri tanlangan. Ishning maqsadi asosida qo`yilgan vazifalar yoritib berilgan. Keng ko`lamda ilmiy nazariy maxsus adabiyotlardan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan talablar darajasida bo`lib ishni himoyaga tavsiya etish mumkin.

**Termiz olimpiya zaxiralari  
kolleji o`qituvchisi:**

**Roziyeva G.A**